



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MEHNAT TA‘LIMI KAFEDRASI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**  
**Pedagogika fakulteti dekani**  
\_\_\_\_\_ dots.F.E. Ochilov  
“ ” \_\_\_\_\_ 2019y.

**“ Himoyaga ruxsat etildi”**  
**kafedrasi mudiri, dotsent**  
\_\_\_\_\_ X.T.Maxamov  
“ ” \_\_\_\_\_ 2019 y.

**fakulteti kunduzgi bo‘limi**

**Pedagogika**  
**5112100-Mehnat ta‘limi yo‘nalishi bitiruvchisi**  
**Ibragimova Shaxnoza Asliddin qizining**  
**bakalavr darajasini olishi uchun yozilgan**

**“Sinfдан tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni xalq hunarmandchiligi**  
**kasblariga yo‘naltirish”**  
**mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Rahbar: k.o‘q.Z.Sh.Nazirov**

**Qarshi – 2019y**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MEHNAT TA'LIMI KAFEDRASI**

**“Sinfidan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarni xalq hunarmandchiligi  
kasblariga yo’naltirish”**

«5112100-mehnat ta’limi» yo’nalishi bo’yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajaruvchi: Ibragimova Shaxnoza

Ilmiy rahbar: Nazirov Zulqaynar

Bitiruv malakaviy ishi «Mehnat ta’limi » kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2019 yil \_\_\_ maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga  
tavsiya etildi (bayonnoma №\_\_\_).

Kafedra mudiri:

dots. X.T.Maxamov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2019 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi majlisida  
himoya qilindi va \_\_\_ ball bilan baholandi (bayonnoma №\_\_\_).

YaDAK raisi:

\_\_\_\_\_

A’zolari:

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Qarshi-2019**

<b>MUNDARIJA</b>		
	<b>KIRISH</b> .....	4
<b>I BOB</b>	<b>Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi kasblariga yo'naltirish.</b> .....	7
1.1.	Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturida mehnat ta'lim o'quv rejasining mazmuni. ....	7
1.2.	Mehnat ta'limi fanida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'quvchilarga o'rgatishda xalq hunarmandchiligini o'ziga xos xususiyatlari.....	10
1.3.	Hunarmandchilik maktablari bilan bog'liq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati.....	31
<b>II BOB</b>	<b>Yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish metodikasi va uning samaradorligi</b> .....	36
2.1.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarni ahamiyati.....	36
2.2.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi.....	40
2.3.	Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligini o'zlashtirish darajasini aniqlash mezonlari.....	47
	<b>XULOSA</b> .....	64
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	66

## KIRISH

Umum o'rta ta'lim maktablarining mehnat va kasb-hunar ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, yoshlarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi. Yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib etishishida, ularda milliy rux va iftixor hissini uyg'otishda xalq hunarmandchiligining ro'li beqiyosdir. Mamlakatimiz moddiy madaniyati tarixida muhim mavqeni egallagan xalq hunarmandchiligi shunday xazinaki, unda xalq hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar aks etadi. Shu jihatdan olib qaralganda yoshlarni kasbga yo'naltirishda hunarmandchilik maktablarining tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning mazmunida umum ta'lim maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati, xalq hunarmandchiligi turlari, maktablari va ularning rivojlanishi, mustaqillik sharoitida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi, xalq hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning mazmuni, xalq hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va ilg'or tajribalar, milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo'naltirish kabi masalalar yoritilgan.

Yosh avlodni ijodiy mehnatga tayyorlash, tafakkurini har tomonlama kengaytirish va chuqurlashtirish barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ta'lim islohotlarining muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifa «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'zining aniq; ifodasini topgan. Jumladan ushbu xujjatda «Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir», - deb ta'kidlangan. Yosh avlodni tarbiyalash va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi ijodiy mehnatga tayyorlash borasidagi mana

shu katta ishlar maktabda boshlanib, o'rta maxsus va oliy maktablarda rivojlantirilishi kerak. Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan va texnika taraqqiyoti va aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatni bir - biriga yaqinlashtirishni, yaxshi ular o'rtasidagi farqni bartaraf qilishni taqozo qiladi[1,2,3].

Texnik tafakkurni va mehnatga ijodiy munosabatni rivojlantishi yangi kishini tarbiyalashning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu maqsadda ushbu bitiruv malakaviy ishi bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchisi, texnik ijodkorlik bugungi talablarda mehnat ta'limida, xususan konstruktorlik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari haqidagi va konstruksiyalash jarayoniga kompyuterni qo'llash haqidagi ilmiy izlanishlarimiz natijasida yuzaga keladi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan o'quv metodik adabiyotlarni o'rganishimiz asosida mavzumiz ***d o l z a r b l i g i n i*** aniqlashga harakat qildik. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

Mehnat ta'limi darslarida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda xalq hunarmandchiligini milliy urf-odatlar asosida o'rganishdan iboratdir[1,4].

Bitiruv malakaviy ishimiz ***m a q s a d i:*** mehnat ta'limi darslarida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda xalq hunarmandchiligini o'qitish bilan o'quvchilarni kasb - hunarga yo'llash, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijodkorligini o'stirish.

Bu maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishimizning ***v a z i f a l a r i*** quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- dars samaradorligini oshirishni;
- o'quvchilarni ilmiy dunyoqarashining shakllantirishni;
- ijodkorlik ishlariga jalb qilishni;
- milliy qadriyatlar asosida xalq hunarmandchiligi asoslarini o'rganish;
- ongli kasb tanlashga yo'llashni;

Bitiruv malakaviy ishimizning ***p r e d m e t i:*** mamlakatimiz prizedenti tomonidan ta'lim tarbiya sohasida, umuman xalq xo'jaligi, fan, madaniyat bo'yicha chiqarilayotgan qonunlar, farmonlari mehnat ta'limiga oid bo'lgan o'quv adabiyotlarni, jurnallarni o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot obekti etib, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 7-umumiy ta'lim maktabi tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishimiz imliy metodik *y a n g i l i g i* umumiy ta'lim maktablarida mehnat ta'limini o'qitish jarayonida hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda turli xil o'qitish metodlaridan foydalanib xalq hunarmandchiligini o'rgangan holda dars samaradorligining oshirish bo'lsa, shu bilan bir qatorda yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash bilan dars samaradorligini oshirish hamda ongli kasb tanlashga yo'llagan bo'lamiz. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda ushbu muhim hujjatdan to'liq foydalangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar ta'limi uzviyligining ayrim muammolarini hal qilishda kasbiy maslahat, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, umuman texnik yo'nalishdagi sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyatini ochib berishga, xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash tizimini yoritib berishga harakat qilganmiz. Shuningdek, kadrlar tayyorlash milliy dasturining g'oyalari nimalardan iborat ekanligi, tashkil qilingan texnik yo'nalishdagi sinfdan tashqari mashg'ulotlar, V-IX sinflarda mehnat ta'limini o'qitishning mazmuni ayrim muammolari va uning yechimlarini axtarib topish, mamlakatimizda mehnat ta'limini o'qitishning shu kundagi ahvoli, tizimi, xususiyatlari, nazariy jihatdan o'rganilgan bo'lsa, metodikasi esa yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimining rivojlanish usullari, uning iqtisodiy samaradorligi, maqsadlari, mohiyati, kasbiy maslahatlar haqida fikrlarni yoritishga ham e'tibor berilgan.

Bitiruv malakaviy ishimiz rejalaridagi mavzularni o'rganish bilan umum ta'lim maktablari va texnikaviy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish orqali yoshlarimizni kasb-hunarga yo'llashda uchraydigan muammolar, ularni hal qilishda ta'limda, samaradorlik va kasbiy maslahatlarning ahamiyatini, fanlararo aloqadorlik asosida tashkil qilishga jazm qildik[7,10].

## **I-BOB Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni xalq hunarmanchiligi kasblariga yo'naltirish.**

### **1.1§ Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturida mehnat ta'lim o'quv rejasining mazmuni.**

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ta'limi mazmuni quyidagi beshta yo'nalishlarga bo'linadi:

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi.

Metallga ishlov berish texnologiyasi.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi.

Pazandachilik asoslari.

Qishloq xo'jalik asoslari.

Ushbu har bir mehnat yo'nalishlari xalq hunarmandchiligi, ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo'naltirish bilan yakunlanadi. Yog'ochga va metalga ishlov berish texnologiyasi O'quvchilar egallashi shart bo'lgan bilimlar:

— texnika va texnologiyaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, ishlab chiqarishda bajaradigan vazifalariga ko'ra mashinalarning tasnifi, konstruksion material (metallar, yog'och, plastmassalar) to'g'risida boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishlari;

— bu materiallarni qayta ishlash texnologiyasini, sanoat ishlab chiqarishida tubdan o'zgartirish kiritgan yangi texnologiyalar to'g'risida;

— yangi mahsulotni konstruksion va texnik badiiy loyihalashning umumiy prinsiplarini hamda dizayn talablari asosida qayta loyihalashni;

— sonli dasturli boshqariluvchi stanoklar va robotlar tuzilishi va ishlash prinsipi to'g'risida umumiy tushunchalar;

— mehnat qonunchiligi va xavfsizligi, sanitariya-gigiyena qoidalari.

O'quvchilarda shakllantiriladigan ko'nikma va malakalar:

— yog'och va metalga chizma, eskiz va texnologik xaritalar yordamida mexanik ishlov berish, ish uchun zarur bo'lgan moslama va asboblarni tanlash;

— yog'ochga ishlov berish, chilangarlik stanogida shakldor yuzalarga ishlov

berishni, chilangarlik vint qirqish stanogida silindr va konus shaklidagi detallarga ishlov berishni, frezalash stanogida satxlar va o'yiqlar frezalash.

Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari.

O'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilimlar: — maktabda (ro'zg'or) tamirlash uy-ro'zg'or ishlarini bajarish;

— elektr yuritmalik tikuv mashinalari tuzilishi, ishlash prinsiplari;

— buyumlar chizmasini chizish va andozasini tayyorlash izchilligi, texnologiyasi, uning sifatiga qo'yiladigan talablar;

— makaron mahsulotlari, sut va sut mahsulotlariga boshlang'ich va issikdayin ishlov berish usullari, ularning ovqatlanishdagi ahamiyati;

— xamirdan tayyorlanadigan mahsulotlar, rezavor va mevalarning ovqatlanishdagi ahamiyati.

O'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar:

— makaron, krupa, sut mahsulotlari va xamirdan taom tayyorlash, meva va sabzavotlardan murabbo tayyorlash:

— uy-ro'zg'or ishlarini bajarish, dasturxon bezash, mehmonlarni kutib olish va madaniyatli xizmat ko'rsatish;

— elektr yuritmalik tikuv mashinasida ishlash, yopishtirma bostirma choklarni bajarish;

— tikuv mashinasini tozalash va moylash, nosozliklarini aniqlash va bartaraf etish;

— kiyimning quyi qismi va cho'ntak astarini tuzatish;

— go'sht, baliqdan suyuq va quyuq taomlar tayyorlash;

— meva va sabzavotlarni konservalash;

— elektr uy-ro'zg'or asboblarini ishlata bilish;

— oila byudjetini ishlata olish.

Xalq hunarmandchiligi.

O'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilimlar:

— xalq hunarmandchiligi va ularning turlari to'g'risida ma'lumotlar;

— yog'och o'ymakorligi va ularning turlari to'g'risidagi ma'lumotlar, yog'och



o'ymakorligining o'ziga xos xususiyatlari, badiiy manzarali talablar;  
—iste'mol buyumlari (tovoq, lagan, qoshiq), qurilish buyumlari (ustun, yopiq rom), mehnat buyum (beshik sandiq, shkaf)lari yasash texnologiyasi, ketma-ketligi.

— Amaliy hunarmandchilik tarmoqlari  
(kashtachilik, zardo'zlik, do'ppido'zlik, bo'yrachilik, savat to'qish, zargarlik, temirchilik, kulolchilik, pichoqchilik va boshqa), ularning ish uslublari, o'ziga xos xususiyatlari.

O'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalar:

—o'quvchilarning o'zi qiziqqan xalq hunarmandchiligi turi bo'yicha biror buyum eskizini chizishi, loyihalashi va shu eskiz asosida buyumning o'zini yasashi, Dizayn talablari asosida buyumga badiiy ishlov berishi;

—o'quvchi bir vaqtda bir necha materiallarga badiiy ishlov berishi;

— xalq hunarmandchiligining bir necha turi bo'yicha buyumlarni loyihalash, yasashni o'zlashtirish mumkin. 5—7-sinflarda ushbu yo'nalishlardan ayrimlari tanlanadi va 8—9-sinflarda shu tanlangan yo'nalishlarga muvofiq holda ishlab chiqarish asoslari va kasbga yo'naltirish kursi o'qitiladi. Ushbu yo'nalishlarning har biri yuzasidan quyidagi bo'limlar bo'yicha o'zaro uyg'unlashtirilgan nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko'nikmalari shakllantiriladi: 1. Materialshunoslik asoslari. 2. Asbob-uskunalar haqida ma'lumot va ishlatish usullari. 3. Mashina, mexanizm, stanoklar va moslamalarning umumiy tuzilishi va ishlatish asoslari. 4. Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi. 5. Xalq hunarmandchiligi kasblari bo'yicha umumiy ma'lumotlar berish va o'zaro turdosh uchta kasb yo'nalishi bo'yicha kasbgacha tayyorgarlikni amalga oshirish. Bundan tashqari har bir asosiy yo'nalish bo'yicha uy-ruzg'or madaniyati va unga tegishli ta'mirlash ishlarini bajarish ko'nikmalari shakllantirilib boriladi. Har bir yo'nalish bo'yicha ishlatiladigan elektrotexnika vositalari, ulardan to'g'ri foydalanish hamda ta'mirlash asoslari o'rgatiladi. Har bir asosiy yo'nalish bo'yicha kompyuter texnikasidan foydalanish masalalari yuzasidan dastlabki ma'lumotlarni berish ko'zda tutiladi. Har bir dars mazmuniga bog'liq holda iqtisodiy, huquqiy va ekologik bilimlar hamda xavfsizlik texnikasi qoidalari o'zaro uyg'unlashtirilgan holda o'rgatib boriladi [6,7,14].

## **1.2§ Mehnat ta'limi fanida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni o'quvchilarga o'rgatishda xalq hunarmandchiligini o'ziga xos xususiyatlari.**

O'rta Osiyoda qadimdan hunarmandchilik taraqqiy etib kelgan. Hunarmandlar xalqning ehtiyojidan kelib chiqib kerakli buyumlar yasaganlar. Shahrixon, Urgut, Qo'qon, Marg'ilon, Chustda hunarmandlar alohida-alohida mahalla bo'lib yashaganlar, ya'ni hunarmandlar qaysi kasb bilan shug'ullansalar, shu hunar nomi bilan mahalla nomi ham aytilgan. Chunonchi, zargarlik bilan shug'ullangan mahalla bo'lsa «zargarlik mahallasi», pichoqchilik bilan shug'ulansa «pichoqchilik mahallasi» deb yuritilgan. O'sha vaqtlarda miskarlik, zargarlik, bo'yrachilik, tandirchilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravazoslik, kulolchilik, toshtaroshlik, savatchilik mahallalari mavjud bo'lgan.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng rivojlangan turlaridan biri naqqoshlikdir. Qadimdan, Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'ati ravnaq topgan. IX— X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Arxitekturada g'isht qalab, naqsh solish rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak darajada rivoj topdi.

XVIII asr oxiri va XIX asrlarda Qo'qon, Farg'ona, Buxoro shaharlarida yetuk namoyondalar qatori xalq ustalari yetishib chiqdi. Miskarlik, naqqoshlik, ganchkorlik va boshqa san'at turlari rivojlana boshladi.

XIX asrga kelib Buxoro, Nurota, Shahrisabz, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Piskent, Farg'ona kabi katta-katta badiiy kashtado'zlik, zardo'zlik markazlari bunyodga keldi. Shuni aytib o'tish kerakki, kashtachilik san'ati butunlay ayollarga xos edi.

O'zbekistonda badiiy kulolchilik xalq an'analariga asoslangan holda haligacha yashab, ijodiy rivojlanib kelmoqda.

Miskarlik buyumlari qadimdan mahalliy aholi orasida mashhur bo'lgan. Ular ro'zg'or asbobi bo'lishdan tashqari, miskarning san'ati tufayli shkaf va tokchalarga qo'yilib, turar joylarni bezash vazifasini ham o'tagan. Qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan miskarlik san'atida o'ziga xos shakl

hamda amaliy va tasviriy usullar bilan ifodalanadigan mahalliy uslublar vujudga kelgan.

Xiva ustalari ko'pincha zebu ziynat, noyob pichoqlar yasashadi. Xiva pichoqlari gul bandidan to po'lat tig'ining uchigacha serbar hoshiyaday boy kandakori naqshlar bilan bezatilgan bo'ladi.

O'zbekistonda ham gilam to'qish an'analari nihoyatda qadimiydir, ular ko'plab ajdodlar mehnati va ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Asosan, O'zbekistonning qishloq joylarida, uyda ishlaydigan ko'plab chevar xotin-qizlar qo'lidan chiqqan gilamlar ham badiiy, ham yasalish jihatidan mukammaldir.

Xalq san'atining nihoyatda rivoj topgan, bizning davrimizgacha o'z ahamiyatini saqlab qolgan va hozirgi zamon ustalari ijodida yanada rivoj topgan turlaridan biri barcha joylarda tarqalgan va qadim zamonlardan buyon boy an'analarga ega bo'lgan zargarlik san'atidir. Qadimiy zargarlik bezaklari kiyim-kechak, ayniqsa, ayollar kiyimining eng muhim badiiy zeb-ziynatlaridan biri bo'lib, bu kiyimlarning bichimi va shakli bilan uzviy bog'langan, rangi, shakli va vazifasi bilan hamohang bo'lgan.

Mustaqillik yillari respublikamizning deyarli barcha amaliy san'at markazlari, yangidan tashkil etilgan firma xamda qo'shma korxonalarining ijodkor kosib va xunarmand ustalari tomonidan xalq san'atning kashtado'zlik, gilamchilik, ganch o'ymakorligi, zagarlik kabi o'nlab turlari rivojlanib kelmoqda.

#### 1. Kashtachilik san'ati tarixi va uning rivojlanishi.

Kashta tikish san'atining ko'p asrlik tarixi bor. Arxeologik topilmalarda yozilishicha, qadimdan uy-ro'zg'or buyumlari - sochiqlar, to'r hoshiya, dasturxonlar, bayram va kundalik kiyimlar, peshbandlar, bosh kiyimlar va boshqa narsalarni kashtalar tikib bezatilgan.

Kashta tikish usullari, gullari, ranglarning mujassamlanishi avloddan-avlodga o'tib takomillashib bordi. Sekin-asta eng yaxshi kashtalar tanlanib qoldi va milliy xususiyatlari bilan harakterli betakror kashta namunalari yaratildi.

Xalq ustalari kashta tikib bezagan buyumlar chiroyli gullari bilan, ranglarining bir-biriga mosligi, to'la mutanosibliigi, bajarish usullarining

professional aniqligi bilan ajralib turadi. Kashta tikilgan har bir buyum amaliy vazifasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz muzeylarida xalq kashtachiligining ko'p namunalari to'plangan, ayniqsa XIX asr kashtalari eng yaxshi saqlanib, shu kunlargacha yetib kelgan. O'zbek milliy kashtachiligi amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda balki, chet ellarda ham shuxrat qozongan.

XIX asrga kelib Buxoro, Nurota, Shahrisabz, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Piskent, Farg'ona kabi katta-katta badiiy kashtado'zlik markazlari bunyodga keldi. Kashtachilikning o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular turli vazifalarni bajaradi. Kashtachilik turli rangli ipak va zar ip bilan igna ilmoqli bigizda har-xil matolarga mayda gul tikishdir.



1-rasm. Kashta namunalari

## 2.Zardo'zlik san'ati tarixi va uning rivojlanishi.

O'zbekiston kashtachiligini noyob turi zardo'zlik san'atisiz to'la tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu san'at o'tgan asrning o'rtalarida Buxoroda gurkirab rivojlangan. U yerda mohir ustalar amir saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardoz berishgan. Zardo'zlik odatda erkaklarga mansub bo'lgan va ular o'z hunarini bolalariga meros qilib qoldirishgan. Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham mavjud va mashhur bo'lgandir. Hozirgi Eronda esa XV-XVII asrlardagi zardo'zlik namunalari anchagina yodgorliklaridan saqlanib qolgandir. XIX - XX asr boshlarida kashtachilik san'atining bir turi bo'lgan zardo'zlik Buxoroning o'ziga xos xususiyatini aks ettirgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar katta ahamiyatni kasb etgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilarning ehtiyoji uchun tikilgandir.

Zar va kumush ip bilan erkaklar to'ni, salla, do'ppi, shalvor, poyabzallar, ayollarning ko'ylak, kamzul kaltacha, peshanaband, ro'mol, etik va tuflilari tikilgan. *Rangdor tosh va metall qubbalar qo'shib tikilgan zardo'zlik buyumlari saroyning ichki qismini hamda ot jabduqlarini bezashda keng qo'llanilgan.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan mehnat ta'limi mashg'ulotlari ushbu ta'limini amalga oshirishda, o'quvchilarning umum mehnat, mehnat, maxsus bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra ko'pgina ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg'unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbiq etishni ko'zda tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda mehnat ta'limi maktab tizimi umumta'lim fanlaridan o'rganiladigan nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'laydigan quvvatli didaktik vositadir.





2-rasm. Zarduzlik ishlaridan namunalalar.

Zardo'zlikda ishlatiladigan materiallar, asbob-uskunalar.

XIX-XX asr boshlaridagi zardo'zlik ishida chetdan keltirilgan turli xil fabrika materiallari singari mahalliy jaydari gazlamalardan ham foydalanilgan.

Bizgacha yetib kelgan zardo'zlik materiallarining juda ko'pchiligi, xususan, erkaklar choponlari chetdan keltirilgan barhutdan tikilgan. Bular ichida baxmal birishim eng a'lo navi hisblanib, to'nlar uchun faqat shundan foydalanganlar.

Zardo'zlik uchun barhutdan tashqari shoyi, atlas, doka, surp, movut, jaydari olocha va nihoyat, teridan foydalanilgan. Sidirg'a va gulli atlasdan asosan ro'mol va belbog'lar tikilgan. Buxoro zardo'zligida dokadan faqat salla qilingan. O'zining mahkamligi, mayinligi bilan ajralib turuvchi bu gazlamani doka misqoniy yoki doka xonjariy deb atagan. Barhutga nisbatan surp Buxoroliklar turmushida juda kam qo'llanilgan. Faqat erkaklar ustki kiyimlar tikishda jaydari bilan bir qatorda hindlarning kashmiriy singari chetdan keltirilgan movut keng qo'llanilgan. Yarim shoyi jaydari olocha gazmoli zardo'zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlatilgan. Undan asosan uy-ro'zg'or buyumlari: so'zana, tokiyapo'sh, joynamoz, lo'la-bolishlar jildi tikilgan. Olochadan asosan bolalar kiyimlari tikilgan. Turli- tuman rangdagi sidirg'a olocha zardo'zlikda keng qo'llanilgan.


Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblangan. Gazlamalarga gul tikish uchun foydalanilgan zar va kumush iplarning o'ziga xos tarixi bordir. Zar iplardan tashqari zardo'zlikda jaydari

rangdor ipak iplardan ham foydalanib, ular asosan gullarga qo'shimcha oro berishda hamda matoga zar yo'l tushirishda ishlatilgan.

Zardo'zlik qurollari unchalik ko'p emas. Ular quyidagilardir: chambarak, ya'ni korcho'bning to'n, jun va mayda-chuyda buyumlar uchun mo'ljallangan turlari mavjuddir. Korcho'b uzunligi 320 sm bo'lgan ikki tengyonli silliq yog'och dastadan iboratdir. Ipni dumaloqlash (o'rash) uchun qattiq yog'ochdan qilingan, uzunligi 20 santimetrdan bo'lgan, to'rt qirrali patiladan foydalanilgan. Ichiga qo'rg'oshin solib vazminlashtirilgan bunday patilalar ipni zich qilib o'rashni ta'minlagan.

Zardo'zlik ishi chog'ida 2 xil angishvonadan foydalanilgan. Biri oddiy fabrika angishvona bo'lib, ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalgan angishvona. Ikki xil qaychi ishlatilgan: biri qaychi ushur gardon, ya'ni «tuya bo'yin qaychi», ikkinchisi oddiy uy-ro'zg'orda ishlatiladigan metall qaychidir. Ignalarning o'rtacha kattalikdagilari ishlatilgan.

Hozirgi kunda esa zamonaviy texnologiyalar bilan jixozlangan sexlarda, zardo'zlar metallardan tayyorlangan dastgoxlar atrofida stullarda o'tirib tikishadi. Zardo'zlik sexlari keng va yorug' xonalarda joylashgan bo'lishi kerak. Xona tabiiy va sun'iy yorug'lik manbalari bilan yoritilishi kerak.



3-rasm. Zardo'zlik dastgohi.

## Do'ppilar turlari va ularning o'ziga xosligi.

Do'ppi - O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiyada esa X-asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Mamlakatimizning barcha rayonlarida do'ppi tikiladi. Uning iroqi, chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma to'r, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi.

O'g'il bolalar va erkaklar kiyadigan Toshkent, Chust, Marg'ilon do'ppilari sipoligi tufayli keng tarqalgan.

Toshkent do'ppisining ikki xil turi mavjud: tepasi dumaloq va uchburchaksimon taxlanadigan. Toshkent do'ppisi sidirg'a rangli (yashil, qora, ko'k, to'q binafsha rang, jigar rang va hakoza) taqir bahmaldan tayyorlanadi.

Buxoro do'ppisi tepa qismining chuqur va uchli bo'lishi, jiyagi normal tikib, maxsus tayyorlanishi bilan Toshkent do'ppilaridan farq qiladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan qaviqlar maqolalariga qarang ).

O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi: kuloh; araqchin; tusdo'ppi

Kuloh - konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i. Uning matosi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi

Araqchin - sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi - keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi bilan yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan: zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, yetalatma, taroq, ova, pildiroq.



Chust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishda bo'ladi.



4-rasm. Do'ppilar turlari.

Do'ppilardagi naqshlar va ularning ramziy ma'nolari

Ma'lumki, har qanday naqsh buyumlarni bezashda qo'llaniladi. Naqshni chizishda, asosan ikki shakldan: tabiiy va geometrik shakllardan foydalaniladi.

O'simliklar, hayvonlar va qushlar naqsh san'atining tasvir obyektidir. Barg, lola, qalampir, atirgul, paxta, anor, nok, uzum, to'vuz, kabutar, sichqon, kapalak, tulki, toshbaqa, qush, sher, go'z, baliq, to'ng'iz, choynak, yulduz, chovgum va boshqa buyumlarning ko'rinishi naqshga asos qilib olinishi mumkin.

O'zbek xalq naqshlarida tipik unsurlar sifatida yaproq, gul, g'uncha, kurtak, lola, qalampir, anor, anor bargi, nok, ko'p bargli gul va boshqalar ifodalanadi. Naqsh unsurlari o'z holicha chiroyli bo'libgina qolmasdan balki, har birining mazmuni ham bor. Shuning uchun naqsh alifbosini o'rgatish maqsadga muvofiqdir[6,7,8].



5-rasm. Do'ppillardagi naqsh turlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limining maqsad va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutiladi:

Maktabgacha ta'lim-tarbiya bosqichida bolalarning yosh, ruhiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat dunyosi, jarayoni, kishilari, buyumlari to'g'risidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlar uyg'otish, maqsadli ish- harakat usullari ko'proq o'yinlar tarzida o'rganib boriladi.

Boshlang'ich maktabda (I-IV - sinflar) o'quvchilarni mehnat va hunarmandchilik dunyosi, o'simliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy mehnat va hunarmandchilik asboblari va mehnat, ish-harakat usullari to'g'risida sodda tasavvurlar hosil qilishni ko'zda tutadi. Bu davrda o'quvchilar mehnat ta'limidan o'zlashtirgan bilimlar ko'lamini o'zlarining hayotiy tajribalarida va oiladagi mehnat jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar.

Tayanch maktablarda (V-IX - sinflar) da o'quvchilar umum mehnat

ko'nikma va malakalarini shakllantiriladi, qiziqish va moyilliklariga ko'ra, o'z-o'zini kasbiy jihatdan aniqlashlari, kasb-hunar turlarini tanlashlarini ta'minlanadi, qiziqish va moyilliklari rivojlantiriladi, umum mehnat madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi, xalq xo'jaligi va hunarmandchilikning sohalari, ularda ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnika va texnologiya bilan tanishtiriladi, mehnat faoliyatining turli qirralarida ishtirok etishlari ta'minlanadi.

Yuqori sinflarda mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish kursi-ishchi va mutaxassislarining amaliyotida qo'llanadigan turli xil qo'l asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalarini o'rgatishni, mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, mehnat qonunchiligi xavfsizligi, sanitariya-gigiyena qoidalari va yo'l-yo'riqlari asoslarini o'rgatishni ta'minlaydi. Shuningdek, bu davrda o'quvchilarda xalq xo'jaligining va hunarmandchilikning asosiy sohalari bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu kurslarda o'quvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtira borib, tanlagan kasblari bo'yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli mehnat jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo'ladilar.

Mehnat ta'limining yuqorida ko'rsatilgan maqsadiga erishishi uchun quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

-o'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat hodimlariga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

-o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirishga odatlantirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotlarni o'zlari iste'molchiga yetkazishlariga o'rgatish, ish boshqaruvchilik (menejmentlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish.

Mehnat ta'limini o'rganish jarayonida o'quvchilar, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq

ustalarining ko'p qirralari boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo'llash vazifasini hal etadilar.

Mehnat ta'limining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinfdars mashg'ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaradorligini, bo'lg'usi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy ta'minlanishida hamda tarixiy qadriyatlarining yanada boyishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ustoz-shogird" tizimi mashg'ulotlarini tashkil etishni oliy o'quv yurtlaridagi musiqa ta'limida talabalar bilan o'qituvchilarning yakka tartibdagi mashg'ulotlar o'tkazishi bilan taqqoslash mumkin.

Mehnat ta'limida elektron hisoblash texnikasi, mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan qurilmalar va avtomatikaning qo'llanilishini o'rganish, o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robot texnika va ishlab chiqarish texnikasini, texnologiyasini ta'limning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o'rganilishini ta'minlaydi.

Keyingi vaqtlarda kam e'tibor berilayotgan, xatto yo'qolib borayotgan turli xildagi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar: o'quvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo o'quv ishlab chiqarish markazlari, o'quvchilar mehnat jamoalari, mavsumiy ishlarida va otaliq korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishlari va boshqalar mazmunan va shaklan qayta ko'rib chiqilib, qayta ishlab, zamon ruhiga moslashtirilishi va ta'lim tizimi amaliyotiga qo'llanilishi, mehnat ta'limining maqsad, vazifalarini amalga oshirishda asosiy shart-sharoitlardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, oila, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalarini, xalq hunarmandlarining tajribalari hamda o'zaro hamkorlikdagi munosabatlari tiklanib, o'quv jarayonida foydali mahsulot-tovar moddiy ne'matlar yetishtirilib, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishida erishish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda ta'limning quyidagi tamoyillariga rioya

etish talab etiladi:

I. Ta'limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar:

- nazariy ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borilishi;
- ta'limning politexnizm asosida qurilishi;
- ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi;
- ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

II. Umum didaktik tamoyillar:

- amaliyligi; ilmiyligi; tarbiyaviyligi;
- ijodiyliigi;
- ko'rgazmaliligi;
- moddiy-texnika jihozlari bilan ta'minlanganligi;
- izchilligi;
- uzviyligi va boshqalar.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlari o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

1. Mehnat ta'limidan o'rganiladigan bilimlar mazmuni bir qancha umum ta'lim fanlari (tibbiyot, iqtisodiyot, atrofimizdagi olam, fizika, matematika, geometriya, jug'rofiya (geografiya), chizmachilik, kimyo, zoologiya, biologiya, anatomiya, botanika, tarix(hunarmandchilik tarixi), rasm (tasviriy san'at) va boshqalar) mazmunida yoritilgan bilimlar, g'oyalar, nazariyalar va tamoyillarga tayanadi. Shu sababli mehnat ta'limi mashg'ulotlari mavzulari ketma-ketligi yuqoridagi fanlarni o'rganish ketma-ketligiga mos holda uyg'unlashtirilmog'i lozim.

2. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari umum ta'lim fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni va o'quvchilarning hayotiy kuzatishlarini amaliyotda, mehnat jarayonida sinab ko'rish uchun o'ziga xos amaliy laboratoriya vazifasini o'tash uchun xizmat qiladi. Bu sohadagi mukammallikni ta'minlash uchun ham mashg'ulotlar ketma- ketligini tanlashda yuqoridagi fanlarning ma'lum bosqichlarini o'rganilgandan keyingina mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tanlash imkoniyati hisobga oilnmog'i lozim.

3.Mehnat ta'limi bir qancha umum ta'lim fanlariga amaliy laboratoriya, sinov maydonchasi sifatida xizmat qilishdan tashqari uning o'zi ham mujassamlashgan fan hisoblanadi hamda qator mustaqil fanlarni qamrab oladi. Mehnat ta'limi bevosita qamrab oladigan, tayanadigan, ba'zi qismlarni umum ta'lim maktablarida o'rganiladigan fanlar jumlasiga qo'yidagilarni keltirish mumkin: materialshunoslik, uyshunoslik, agronomiya asoslari, tuproqshunoslik, mashinashunoslik, texnika va texnologiya asoslari, xalq hunarmandchiligi (naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, zargarlik va boshqalar), chorvachilik, mexanizasiya, ishlab chiqarish asoslari, qishloq xo'jaligi, kasb tanlash va boshqalar.

4.Mehnat ta'limining amaliyligi va mujassamlashagan o'quv fani ekanligidan uning alohida moddiy, xom ashyo, jihozlar ta'minotiga muhtojligi, o'ziga xosligi kelib chiqadi. Ushbu ta'limning to'laqonli yo'lga qo'yilishi uchun turli asbob uskunalar, jihozlar, qurilma va moslamalar, shiyponlar, maxsus binolar avtomobil va traktorlar (agregatlar), trenajyorlar, yer maydonlari, tajriba sinov va o'quv mashg'ulot maydonlari, materiallar (metallar, metallmaslar, gazlamalar, plastmassalar va hakoza) zarurdir.

5.Ushbu ta'lim sohasi alohida o'quv, didaktik, metodik ta'minotiga egadir: Plakatlar, chizmalar, chizish, o'lchash, rejalash va moslama asboblari, operasion, yo'l-yo'riqli, xavfsizlik, yo'riqnomalar, xaritalar, pasportlar va qurilmalarning guvohnomalari, tarqatmali va ko'rsatmali didaktik vositalar, shablonlar, diafilmlar, o'quv filmlari va boshqalar.

6.Mehnat ta'limining ko'p tarmoqlilik va keng ko'lamdaliligi tufayli turli sohalar bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorlangan mutaxassislariga muhtojligi.

7.Mehnat ta'limi mashg'ulotlari qo'yidagi tiplarga bo'linadi:

a)Nazariy bilimlarni o'zlashtirish;

b)Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;

v) Ishlab chiqarish mashg'ulotlari

Ushbu ta'limda keyingi ikki tip mashg'ulotlarining tashkil etilishi, yo'lga qo'yilishi, ta'minlanishi, butun ta'lim mazmunining o'zlashtirilish sifatini

belgilaydi.

Qator yillardan buyon olib borgan kuzatishlar natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan mehnat ta'limining asosiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, ushbu sohaning har bir bosqichini, mashg'ulotini, mavzusini, mavzu qismlarini o'tishda ham o'ziga xoslik sezilib turishini ta'kidlash o'rinlidir.

Mehnat ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati uning ta'lim mazmunini tanlashda, har bir bosqich uchun belgilab olishda namoyon bo'ladi.

1) I-IV - sinflarda - keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil materiallar (qog'oz, karton qirqimlari, plastilin, loy va boshqalar) bilan tanishtirish, ulardan an'anaviy va milliy o'yinchoqlar yasash, didaktik materillar tayyorlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish faoliyatiga o'quvchilarni odatlantirish, turmush, sanoat va hunarmandchilik buyumlarining kichraytirilgan nusxalarini tayyorlashni o'rgatish, turli xildagi shakllar, naqshlar yasashni o'rganishlaridan qishloq xo'jaligi, uy ekinlari va chorva mollari to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lish va boshqalardan iborat. Bu davrda mehnat ta'limi darslariga ajratilgan o'quv soatlarini yana bir soatga oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki bir soat davomida o'quvchilarga bajaradigan yumushlari to'g'risida umumiy nazariy tushunchalar berilsa, keyingi soatda esa aytilgan ish harakat usullari amalda bajariladi, amaliy hujjat jarayonida ishtirok etiladi, buyumlarni yasash yo'llari, uslublari o'rganiladi.

2) V-IX - sinflar - mehnat ta'limida amaliy o'quv mashg'ulotlari orqali xalq xo'jaligi sohalarini qisman yo'naltirilgan holda o'rgatiladi.

1. Texnik-texnologik mehnat (texnologiya):

a) keng ko'lamda ishlatiladigan materiallar (yog'och va metallar) qog'oz, karton, shisha, plastmassa va boshqalarga ishlov berish;

b) elektrotexnika ishlari;

v) uy-ro'zg'or buyumlarini o'rganish va tuzatish;

g) tuzuvchilik, qurish-loyihalash asoslari bilan tanishish.

Ushbu kursni o'rganishda o'quvchilar turli materiallar (yog'och, metall), qog'oz, shisha, plastmassa va boshqalarning xususiyatlari, xossalari to'g'risida



boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar, ularni rejalash, arralash, teshish, yo'nish, pardozlash ishlari va ularda ishlatiladigan asboblarni tuzilishi, ishlashi, qo'l, elektr va mexanizasiyalashtirilgan jihozlar, yangi texnika va ilg'or texnologik xaritalari, ularni tuzish, ular bilan ishlash, mehnat qonunchiligi va xavfsizligi, sanitariya qoidalari to'g'risida va shu kabi nazariy bilimlarga ega bo'ladilar.



6-rasm. Qog'ozlardan ishlangan namunalar

Texnik- texnologik mehnatni o'rganish jarayonida o'quvchilar turli xil qo'l asboblarni(rejalash, teshish, yo'nish, arralash, sovuqlayin va qizdirib ishlash va boshqalar) amaliy malakalarini, texnologik xaritalar bilan ishlash, mo'ljallash, texnikaviy andozalash (shablonlar), hujjatlar bilan ishlash hamda boshqa turdagi kasbiy malaka va ko'nikmalarni egallaydilar.



7-rasm. Stanoklar




## 2.Xizmat ko'rsatish mehnati(SERVIS):

a) gazlamalarga ishlov berish, tikuvchilik asoslari;

b) oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish-oshpazlik va qandolatchilik asboblari;

Bu kursda o'quvchilar qo'yidagi ko'nikma va malakalarini egallaydilar: oziq- ovqat mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, ularga dastlabki va asosiy ishlov berish; turli xil uy-ro'zg'or asboblarni ishlatish; turli taomlar tayyorlash; elektrlashtirilgan uy-ro'zg'or vositalarini ishlatish, boshqarish; kiyimlarni bichish, tikish, tuzatish va shu kabilar.



8-rasm.serviz xizmat turlari.

3. Qishloq xo'jalik asoslari: o'quvchilarni moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bilan tanishtiradi. Bu kursni o'rganish jarayonida

o'quvchilarda qo'yidagilar haqida tushuncha va boshlang'ich kasbiy ish harakat usullarini tarkib topishi ko'zda tutiladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning ahamiyati, o'ziga xos xususiyati va sohalari. Dehqonchilik va chorvachilikni bir-biriga uyg'un holda rivojlantirish istiqboli hamda zaruriyati. Bir, ikki va ko'p yillik ekinlarni yetishtirish - agronomiya asoslari; qishloq xo'jalik mexanizasiyalash, kimyolashtirish, elektrlashtirish, meliorasiyalash va avtomatlashtirish asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish, bajarilgan ishlar yoki yetishtirilgan maxsulot sifatini tekshirish, ilg'or texnologiya va iqtisodiy masalalar, madaniy ekinlarning kelib chiqishi, tarqalishi, ekinlarni o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart- sharoitlar. Yerning tuzilishi, holati va unumdorligi: yerga ishlov berish va alamashlab ekishning ahamiyati hamda unda qo'llanadigan qurollar, moslama va mashinalarning umumiy tuzilishi, ishlash tartibi va ularga qo'yilgan agrotexnik talablar: yer unumdorligi va ekin hosildorligini oshirishda o'g'itlarning roli. O'g'it turlari, o'g'itlash muddati, me'yori va unda ishlatiladigan mashinalar. Hosildorlikka urug'lik materialining ta'siri. Urug' va ko'chat ekish muddati, me'yori va usullari. Urug' va ko'chat ekish mashinalariga qo'yilgan agrotexnik talablar, ularning umumiy tuzilishi, ishlash tartibi va ish rejimiga rostlash ishlari. Urug'larni tekis undirib olish chora-tadbirlari. Ekinlarni qator oralig'iga ishlov berish, sug'orish va himoya qilish ishlarining ahamiyati hamda bu ishlarda qo'llaniladigan qurollar, moslamalar va mashinalarning tuzilish, ishlashi va ularga qo'yilgan agrotexnik talablar.

G'alla, don, dukkakli, tuganakli va ildizmeva, sabzavot, poliz, meva, moyli va tolali ziravor ekinlar yetishtirishning ahamiyati va unda ishlatiladigan qurollar va mashinalar majmuasi.

Yopiq joylarda (issiqxonalarda) va teplisalarda hosil yetishtirishning ahamiyati, istiqboli, o'ziga xos xususiyatlari va ularda ishlatiladigan kichik o'lchamli mashinalar.

Yetishtirilgan hosilni yig'ib-terib olish birlamchi ishlov berish va saqlash qoida hamda chora-tadbirlari.

Chorva mollarining kelib chiqishi, xonakilashtirishi va tarqalishi, chorvachilik biologiyasi va tarmoqlari (qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, quyonchilik, cho'chqachilik, mo'ynachilik va hokazo); chorvachilikda naslchilik va seleksiya asoslari. Chorvachilikni mexanizasiyalash, avtomatlashtirish va maxsuldorligini oshirish usul va vositalari. Chorva mollarini boqish, oziq birligi, ozuqabop ekinlar. Chorvachilikda sanitariya-gigiyena, zotexnika, zoveterinariya asoslari[9,10].

Mehnat ta'limining yuqorida ko'rib o'tilgan an'anaviy ko'rinishi ancha ulkan va keng ko'lamda bo'lganligi bilan birgalikda, xalqning milliy, maxalliy, etnik, tarixiy xususiyatlarini, yoshlarni kasb-hunarlariga yo'naltirishning mintaqaviy xususiyatlarini, ijodkorlik san'atini to'liq ifodalamaydi. Bundan tashqari, boshqa fanlardan farqli o'laroq, mehnat ta'limida o'quvchilarning jinsiy xususiyatlari, ya'ni, o'g'il va qiz bolalar mehnati mazmunan ham, shaklan ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Mehnat ta'limining an'anaviy ko'rinishidagi "texnik mehnat", "maishiy xizmat ko'rsatish mehnati" deb nomlangan, ilmiy asoslanmagan, qolaversa, mutlaqo mavhum, tushunarsiz atamalar bu ta'limning yanada aniq maqsadsiz tashkil etilishiga olib keladi. Mehnat ta'limining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, xalqning mehnat faoliyatining milliy, ma'naviy, madaniy, tarixiy, etnik xususiyatlarini ifodalaydigan xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishni ham mustaqil yo'nalish sifatida kiritishni lozim deb topildi.



9-rasm. Qishloq xo'jaligi ishlari

4. Xalq hunarmandchiligi asoslari: Ushbu o'quv mehnat ta'limining etnik, milliy, tarixiy, ma'naviy, mahalliy, jug'rofiy asoslarini ifodalaydi va 150 xildan ziyod turga ega: ganch o'ymakorligi, naqqoshlik; yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, temirchilik, misgarlik, kulolchilik, sandiqsozlik, beshiksozlik, miynogarlik, pichoqchilik, zargarlik, gilamchilik, chopon tikish, muxrkandlik, kigiz bosish, do'ppichilik, mo'jaz rang-tasvir, sharq miniatyurasi, zardo'zlik, patdo'zlik, kashtachilik; milliy musiqa asboblari tayyorlash va ta'mirlash, me'morchilik, savat to'qish, bo'yrachilik, novvoychilik, o'tovlar tayyorlash, oshpazlik, milliy o'inchoqlar tayyorlash, egarchilik, ot-ulov anjomlari tayyorlash (anjomasozlik), kosibchilik, imoratsozlik (binokorlik) va boshqa asosiy yo'nalishlarga ega.

Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini o'rganishda o'quvchilar qo'yidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan o'rni, sohalarining tarqalishi, jug'rofiyasi, turlari, ularning yo'nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Nukus, Andijon, Farg'ona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning o'ziga xos yo'llari; tarixiy me'morchilik obidalari, ularning qurilishi, saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat va xom ashyolarining, zahiralarining manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning o'zaro bog'liqligi va aloqasi va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligi asoslarini egallashda o'quvchilar qo'yidagi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizasiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalar bilan ishlash; buyumlarni-hunarmandchilik



asarlarni asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; yul-yo'riqli, operatsiyali, texnologik va ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; jarayonlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlarni va asarlarni iste'molga chiqarish va boshqalar.



10-rasm.Xalq hunarmandchiligi ishlaridan namunalar.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limining yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlari, o'quv kurslari joylarning sharoitlari, ixtiyoji va istiqbolini hamda o'quvchilarning qiziqishlari, jinsiy xususiyatlarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda, har bir kursni alohida yoki bir sinfda har bir kursni o'quv yiliga taqsimlab tashkil etish mumkin.

Bunday hollardagi o'g'il bolalar va qiz bolalar mehnatining o'ziga xos juz'iy xususiyatlarini e'tiborga olish lozim.

O'g'il bolalar va qiz bolalar mehnatini tashkil etishda maktablarning o'quv-moddiy bazasi va o'quvchilar, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

Xalq hunarmandchiligining umum ta'lim maktablari mehnat ta'limiga kiritilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini tashkil etishning ko'lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishloq maktablarida mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. Chunki, ushbu ta'limning an'anaviy ko'rinishda shahar va qishloq maktablarida mashg'ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalari taraqqiyoti, ta'lim muassasani o'rab turgan ishlab chiqarish sohasini hisobga olib, ularga bog'lanish zarur. Xalq hunarmandchiligining esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog'liq bo'lmagan holda o'quvchilarga turli umum mehnat, maxsus ko'nikmalarni o'rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir[11,13].

### **1.3§. Hunarmandchilik maktablari bilan bog‘liq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati.**

Mamlakatimizda hunarmandchilik tadbirkorligi qadimdan rivojlanib kelayotganiga qaramasdan, bu sohani yanada rivojlantirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ulardan ijodiy foydalanish foydadan xoli bo‘lmaydi. Bu borada hunarmandchilik o‘ziga xos tarzda rivojlanayotgan, hunarmandchilikni tashkil etish va taraqqiy ettirish yuksak darajada tashkil etilgan Germaniya hunarmandchiligi to‘g‘risida to‘xtalab o‘tamiz.

Hunarmandchilik Germaniyada azaliy an‘analariga ega iqtisodiyotning ancha qadimiy sohasi hisoblanadi. Xususan, ko‘plab shaharlardagi hunarmandchilik gildiyalarining (o‘rta asrlarda G‘arbiy Evropada yirik savdogarlar yoki hunarmandlar birlashmasi) ulkan jomelari va san‘atkorona bezalgan binolari bundan dalolat beradi. Ammo, bugun ham Germaniyada hunarmandchilik o‘zining iqtisodiy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Hunarmandchilik Germaniya iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligiga yana ikkita sabab mavjud. Birinchidan, bu erda ko‘plab mustaqil firmalar tuzish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, bo‘ljak tadbirkorlar uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘taydi. Ikkinchidan, hunarmandchilik korxonalarini kasbga tayyorlash tizimida muhim rol o‘ynaydi. Germaniyada bu korxonalarda yoshlarning deyarli 40 foizi kasbga ega bo‘ladi, hozirgi paytda bu 632.000 ming kishini tashkil etadi.

Germaniya hukumati kichik va o‘rta korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash va mustahkamlash maqsadida ularni qo‘llab quvvatlashda. Bu yordam o‘z ichiga axborot tadbirlarini va malakani oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni, tadbirkorlik faoliyati masalalari bo‘yicha maslahatlarni, ishlab chiqarishlararo o‘quv markazlari doirasida kasbiy ta‘lim va malakani oshirishga hamda bunday markazlarni jihozlashga imtiyozlar berilishini va yordam pullari ajratilishini qamrab oladi. Bundan tashqari, bu ish hunarmandchilik sohasida texnologiyalar va innovatsiyalar uzatilishiga ko‘maklashadi.

Federatsiya va yerlar o‘z ishini ochmoqchi bo‘lganlarga ko‘mak beradilar,

buning uchun moliyaviy ko‘makning turli-tuman dasturlari mavjud. 1996 yilning 1 yanvaridan boshlab kasbiy mahoratni oshirishda moliyaviy ko‘mak to‘g‘risida Qonun (Ustalar to‘g‘risida qonun, deb ham ataladi) kuchga kirdi. Ushbu Qonun usta, texnik bo‘lishga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoki shu kabi malakaga ega bo‘lishni istagan mutaxassislariga davlat ko‘magini olishga qonuniy huquq beradi, bu ko‘mak qisman yordam puli shaklida, qisman kredit shaklida beriladi. Bu xarajatlarni Federatsiya va yerlar birgalikda qoplaydi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining sifat darajasini, hunarmandchilik va butun iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini saqlab qolish uchun Hunarmandchilik to‘g‘risidagi nizomga muvofiq, faqat usta unvoni uchun imtihon topshirib, undan muvaffaqiyatli o‘tgan kishigina hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi mumkin. Mohiyatan, hunarmandchilikka yaqin ayrim kasblar bilan maxsus imtihon topshirmasdan turib ham shug‘ullanish mumkin. Imtihon paytida nafaqat tor ixtisoslik doirasida, balki ma‘muriy-xo‘jalik, huquqiy va pedagogik bilimlarni ham namoyon qilish kerak. Usta unvoniga imtihonni topshirish hamda Malaka to‘g‘risidagi tegishli guvohnomani olish shogirdlar tayyorlashga huquq beradi. 1998 yilning aprelida Hunarmandchilik to‘g‘risidagi nizomga kiritilgan o‘zgarishlarning kuchga kirishi munosabati bilan u bilan bog‘liq kasblar qayta ko‘rib chiqildi, va ularning faoliyat sohasi esa ancha moslashuvchan bo‘ldi. Bu esa, hunarmandchilik sohasini ancha mustahkamladi, maqsad – shu sohada kasbiy tayyorgarlikdan o‘tish va bandlikni ta‘minlash hamda o‘z ishini ochishdan manfaatdorlikni oshirishdir.

Malaka to‘g‘risidagi katta guvohnomaning mavjudligi hunarmandchilik sohasida o‘z ishini ochish uchun asos bo‘lib qolmoqda.

Germaniyada shahar hududidagi yoki qishloq okrugidagi bitta hunarmandchilik yo‘nalishidagi korxonalar hunarmandlar sexiga birlashadilar. Bu sexlar, o‘z navbatida, yerlarning sex uyushmalariga kiradilar. Avvalo, kasbiy ta‘lim va malakani oshirish sexlarning ixtiyoridadir. Ular, shuningdek, jamoa shartnomalarini tuzishi va o‘z a‘zolari uchun sex shifoxonalarini ta‘sis etishlari mumkin.



Germaniyada yerlar bo'yicha, geografik tamoyilga ko'ra tashkil etilgan 60 dan ortiq hunarmandchilik palatalari mavjud bo'lib, ular o'z hududlaridagi hunarmandchilik korxonalari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydilar hamda ularni huquqiy tomondan nazorat qilib turadilar. Hunarmandchilik palatalari quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- ustalar va shogirdlarning ro'yxatini tuzish;
- hunarmandchilik korxonalari reestrini yuritish;
- huquqiy normalar va raqobat kurashi qoidalarini shakllantirish;
- hunarmandchilik mahsulotlarini ekspertiza qilish (sertifikatlashtirish, litsenziyalash va h.k.);
- umumiy iqtisodiy muammolarni hal etish, texnik maslahatlar berish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal etishda qatnashish;
- radio, televidenie va matbuotni jalb qilgan holda axborotlar bilan ta'minlash;
- hududlar bo'yicha hunarmandlarni oqilona joylashtirish sxemasini ishlab chiqish, qurilish, yuklarni tashishni rejalashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- bojxona rasmiyatchiliklari bilan tanishtirish;

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash bo'yicha Germaniya tajribasini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

- bozor munosabatlari rivojlanayotgan sharoitda milliy hunarmandchilikning samarali rivojlanishini davlatning ishtirokisiz ta'minlab bo'lmaydi;
- Germaniya tajribasi bunday qo'llab-quvvatlash tashkiliy, moliyaviy, huquqiy, moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni qamrab olishi zarurligini ko'rsatdi;

– bu tadbirlar va ularni amalga oshirish vositalari mamlakatimizning milliy xususiyatlari, iqtisodiyotning holati, vujudga kelgan ijtimoiy-ruhiy vaziyat, iqtisodiy madaniyat darajasi va boshqa iqtisodiy muhit hamda sifat omillarini hisobga olgan holda belgilanishi zarur.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashning samarali choratadbirlari tizimi ishlab chiqilib, doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ammo, hunarmandchilikni rivojlantirishning nemislar tajribasining ham diqqatga sazovor jihatlari mavjud. Ulardan foydalanish mamlakatimiz uchun ham faqatgina ijobiy natijalar berishi aniq.

Bizningcha, mamlakatimizda hunarmandchilik tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash quyidagi tashkiliy-boshqaruv darajalari bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin: – umumdavlat; – mintaqaviy.

Umumdavlat miqyosida qo‘llab-quvvatlash hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rinadi. Bizningcha, bu borada eng yaxshi samara beradigan yo‘l – bu hunarmandchilikni mintaqalar bo‘yicha qo‘llab-quvvatlashdir. Bunda mintaqalarning tabiiy-iqlimiy sharoiti, hunarmandchilik ishlab chiqarishi uchun zaruriy xom ashyo manbalarning mavjudligiga qarab, ma‘lum bir hunar turlarini ustun darajada rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratiladi.

Natijada mintaqalarda milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ishlab chiqilgan chora-tadbirlar tizimi bevosita shu sohaning rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Mintaqalarda hunarmandchilik tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash mumkin:

1. Hunarmandchilik tadbirkorligi uchun zarur infratuzilmani yaratish;
2. Hunarmandchilik tadbirkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash (masalan, Rishtonda va G‘ijduvonda kulolchilik, Buxoroda zardo‘zlik, Marg‘ilonda atlas to‘qish, Qashqadaryo va Xorazmda gilamdo‘zlik va h.k.);

3. Hunarmandchilik korxonalarini tashkil etish (hunarmand kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlari, “Usta-shogird” maktablarini tashkil etish);

4. Hunarmand tadbirkorlarni kredit resurslari bilan ta'minlash;

5. Hunarmand tadbirkorlarni rag'batlantirishni kuchaytirish;

6. Mintaqalarda “Hunarmand” uyushmalari ishini takomillashtirish va ularning xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirish.

Bizningcha, mintaqalarda hunarmand tadbirkorlarni ichki va tashqi bozor to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydigan firmalarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, hunarmandlar manfaatini himoya qiladigan tuman hokimiyati bo'limlarini tashkil etish zarur. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Mintaqalarda mavjud tabiiy resurslarni aniqlash va resurslardan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan talabni hisobga olish zarur;

2. Mintaqalarda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash zarur;

3. Yirik sanoat korxonalari va kichik biznes sub'ektlari bilan hunarmandlar o'rtasida kasanachilikni yo'lga qo'yish kerak.

Germaniya tajribasidan ma'lumki, juda ko'p hunarmandchilik korxonalari yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalari bilan shartnoma asosida ularga mahsulot qismlarini tayyorlab berish va har xil xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Demak, respublikamizda ham hokimliklar milliy hunarmandchilik sub'ektlarini yirik korxonalar bilan kasanachilik asosida xizmat qilishni rivojlantirishni rag'batlantirishi maqsadga muvofiq bo'ladi[4,10].

## **II BOB. Yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish metodikasi va uning samaradorligi.**

### **2.1 § Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarni ahamiyati.**

Mehnat tarbiyasi, mehnatga munosabatni tarbiyalash maktabdagi o'quv hamda sinfdan tashqari ishlarning o'zagi, maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlashning asosiy yo'lidir. O'quvchilar mehnat ruxiy va amaliy tayyorlash maktabning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan biridir.

Maktabning turmush bilan aloqasi kundan-kunga mustaxkamlanib bormoqda, sinfdan tashqari ishlarning o'quvchilar o'zlarining mustaqilliklari va tashabbuslarini namoyish eta oladigan, ularga jamiyat foydasi uchun tashkil etilgan mehnatning go'zalligi va quvonchini, jamoaning kuchini his etishlariga yordam beradigan yangi shakl va usullarlari aniqlanmoqda.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni davom ettirilishi to'garak ishlari, jumladan "Mohir qo'llar", "Yosh naturalistlar", "Badiiy kashtachilik to'garaklari" kabi to'garaklar keng tarqalgandir. O'quvchilarning mehnat faoliyatiga psixologik va amaliy tayyorlash o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlarida qatnashayotgan vaqtlarda xilma-xil tarbiyaviy tadbirlarni ko'llash orqali amalga oshirilishi kerak.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ish maktabning butun ta'lim - tarbiyaviy ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u bolaning har tomonlama rivojlantirish, darslarda egallayotgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, amalda qo'llanishga yordam beruvchi muxim vositalardan biridir. Sinfdan tashqari ish ayni bir vaqtda o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, mehnat ta'lim va tarbiyasi bolalarda fan texnika, sa'natning turli soxalariga qiziqishini o'stirish masalalarini hal etishga yordam beradi.

Mehnat ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar texnik mehnat darslarining davomi qo'shimchasidir. O'quv mashg'ulotlari bilimlarga qiziqishini o'zgaradi, sinfdan tashqari ish darsida bilimlarni kengroq qo'llash hamda chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishlarda berilgan materiallarni

aynan takrorlamasligi kerak, u sinfdagi ishdan o'zining o'yin, qiziqarli harakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga ishning o'zlariga ko'prok yoqqan, o'zlarini ko'proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo'ladi, bu yerda ular istalgan ish bilan shug'ullanishlari, qo'yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo'lgan vaqt va kuchini sarflashlari mumkin. Sinfdan tashqari ishning formalar ko'pdir: Ommaviy ish - kechalar, konkurslar, viktorinalar, ekskursiyalar, ko'rgazmalar.

Maktablarda boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni estaliklar, ko'rgazmalar tayyorlashni uyushtirish kabi ommoviy ish turlaridan keng foydalanib, konkurs va viktorinalarga kam e'tibor beriladi. Ommaviy ishning konkurs va viktorinalar kabi turi juda qiziqarli va aynan bir vaqtda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadir. Chunki zehni, tez javob topa bilish, o'z fikri, bilim va ko'nikmalarini safarbar eta bilish xuddi mana shu ish turlarida talab qilinadi. Maktabning tarbiyaviy ishlarida ommoviy ishlar katta ro'l o'ynaydi. Kechalarga, konkurslarga, viktorinalarga tayyorgarlik o'quvchilarni xar tomonlama harakat qilishga matnlarni yodlash, .kostyumlar tayyorlash, jixozlash, bezash ishlarini amalga oshirishga majbur qiladi. Kechalar mavzulari shunday tanlanishi kerakki, u o'quvchilarda xar tomonlama qiziqish uyg'otsin, ularni uylashga, ixtiro qilishga majbur etsin va faqat mavjud bilim va ko'nikmalar bilan cheklanib qolmay, kecha mavzusining dasturiga muvofiq yangiliklarni ham o'zlashtira borsin. Ayniqsa kechalar ikki yondosh sinflar qo'shilganda juda qiziqarli va jonli o'tadi. Kecha mavzusi asosan maqol va matallardan olinadi, ammo kecha mavzusini "Mehnat va mehnat kishilarini sharaflaydigan" mehnatga aloqador bo'lishi ham mumkin. Mehnatga bag'ishlangan kechalarni xar bir o'quv choragi va yil oxirida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kecha "Maktab mehnat darslarida nimalarni urganib oldingiz" mavzusi asosida o'tkazish mumkin. Kechaning maqsadi mehnat darslardayoq olingan ko'nikma va malakalarni mustaxkamlash, mehnatga muxabbat singdirishdir.

Turli ishlarni bajarish, asboblarni tug'ri ishlatish, darslarda foydalaniladigan

materiallar va asboblarni buyicha bilimlarni tekshirishga bag'ishlangan musobaqalar sinfda va sinflararo o'tkazilishi mumkin. Ish turlarini, tayyorlash texnologiyasini aynan o'zini qoldirib o'zgartirish kerak. Hamma topshiriqlarni bajargan o'quvchilarni maxsus nishon bilan taqdirlash mumkin[5].

Tugarak ishlarida ko'rgazmalar, mavzuli albomlar, ko'rgazmali qurollarni tashkil etish va bajarish muxim o'rin egallaydi. Ko'rgazmalar mavzusi xilma-xil bo'lishi mumkin, masalan sinfda mehnat darslarida bajarilgan ishlar ko'rgazmasi, uyda mustaqil ishlagan yoki to'garaklarda ishlangan ishlar ko'rgazmasi va shu kabilar. Ko'rgazmani tomoshabinlar qanday idrok etishari, ko'rgazmani qanday tashkil etilganligi, qanday bezatilganligini, namunalarning joylashtirishiga bog'liqdir. Ko'rgazma estetik didni tarbiyalaydi. To'garak ishi - "Mohir qo'llar", "Qo'g'irochoq teatri", "Yosh tabiatshunoslar", "Quvnoq ustaxona" to'garaklari. Boshlang'ich sinflardagi to'garak ishlari o'quvchilarida umumiy rivojlantirishni., o'zining sodda ijodiy fikrini amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'lsinlar. Boshlang'ich sinflarda to'garak ishi quyi sinf o'quvchilarini umumiy rivojlantirish, ayniqsa uqishning turmush bilan aloqasi nuqtai nazaridan juda muxim va keraklidir. "Moxir qo'llar", "Qug'irochoq teatri", "Yosh tabiatshunoslar" to'garaklari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lib, to'garaklarda o'g'il va qiz bolalar bir xil qiziqish bilan shug'ullana oladilar. Xar biri o'z qiziqishi, kuchi va imkoniyatlariga yarasha ish bilan shug'ullana oladilar. To'garaklarni tashkil etishdan oldin o'qituvchi maktabdagi mavjud imkoniyatlarni chamalab chiqishi lozim. To'garak uchun albatta alohida xona kerak bu xona stol- stullar, ma'lum asbob-moslamalar to'plami, tayyor ishlarni quyish uchun shkaflar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

To'garak ish rejasini to'garak raxbari sinf raxbarlari bilan hamkorlikda bir yilga tuzadilar. Rejada to'garak qaysi ish turi bilan shug'ullanishi va shu ish turlari bo'yicha qanday amaliy ishlar amalga oshirilishi qayd etiladi. Rejadagi ishlar oddiydan murakkabga o'tishini ta'minlash uchun murakkablik darajasiga ko'ra joylashtiriladi. Rejada o'tkaziladigan ekskursiya ham kursatiladi. To'garak rejasini maktab raxbari tasdiqlaydi. To'garak mashg'uloti haftada bir marta o'tkazilib, u

1,5 soatdan ortiq davom etmasligi kerak. To'garak mashg'uloti odatda yangi ish usullarini ko'rsatishdan boshlanib, to'garak a'zolari bu harakatni takrorlaydilar, asosiy ishga esa ular bu ish usullarini yaxshi egallab olganlaridan so'ng kirishiladi. To'garak a'zolari ishlarni bajarish jarayonida oddiy sxemalar, chizmalardan foydalanishga, materiallarga tartibli, tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishga, asboblarni xamda ish joyini toza va tartibli saklashga albatta odatlantirish zarur. To'garakning xar bir a'zosi "Uzing bilim oldingmi - urtog'inga ham o'rgat" degan qoidani doimo yodida saqlashi kerak. Individual mashg'ulot - kolleksiyalar to'plash, texnika bilan mustaqil shug'ullanish, qishloq xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanish kiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'plab ijtimoiy foydali mehnatda qatnashadilar. Bu tadbirlar barchasi o'quvchilar tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning qiziqishlariga, qobiliyatlariga qarab turli xil ishlarni amalga oshirishimiz mumkin. Bajarilgan ishlarimizni ahamiyati haqida tushuntirilib borilsa, yaxshi natijalarga olib keladi. Mehnat topshiriqlarini sinfdan tashqari ishlarda qo'llash o'qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta to'garak ishlarini doimo nazorat qilib, ularni chuqur va mustahkam bilimlar bilan qurollantirib, tanlagan kasbiga qiziqtirib va o'quv fanlari mazmunini mukammallashtirib o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish kerak. Sinfdan tashqari ishlarni samarali ravishda amalga oshirish, boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan bilim, malaka va ko'nikma va malakalarini mustaxkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi, ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi hamda badiiy estetik didini oshirishda muxim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'z vaqtida, rejali, tartibli o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqish va xavaslarini oshiradi, ma'naviy, mafkuraviy qarashlarini boyitadi [8,10,12].

## **2.2 Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi.**

Sinfdan tashqari ishda ham mehnat ta'limida qo'yiladigan vazifalar qo'yiladi. Biroq bunda ularni bajarish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar mavjud. Ular ustida batafsilroq tuxtalamiz.

Sinfdan tashqari ish bir tomondan sinfdagi ishning davomi bo'lsa, boshqa tomondan, o'quvchilarni mehnatga tayyorlash imkoniyatlarini ancha kengaytiradi.

Sinfdan tashqari ishda ishtirok etish ixtiyoriy bo'ladi.

Shuning uchun bunday ishga jonboz, tashabbuskor o'quvchilar jalb etiladi. Ular faoliyatining mazmuni dars mashg'ulotlaridagi faoliyat mazmunidan bir oz bogshqacha bo'ladi. Bu hol o'quv programmasida kuzda tutilganidan murakkabroq vazifalar qo'yishga va ularni hal etishga imkon beradi. Ixtiyoriylik prinsipi o'quvchilar tashabbuskorligi yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi. Shu tufayli sinfdan tashqari ish jarayonida mehnat ta'limining asosiy vazifalarini bajarish buyicha yaxshi natijalarga erishiladi.

Sinfdan tashqari ishning mazmuni mehnat ta'limiga doir o'quv programmalari bilan qat'iy bog'lanmaganligi sababli xavfsizlik qoidalari nuqtai nazaridan maqbul bo'lgan istagan korxonaga ekskursiyalar rejalashtirilishi mumkin. Bu ekskursiyalardan maqsad o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirishdir. Boshqacha aytganda, politexnika ta'limi sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi bo'lib qolishi mumkin.

Sinfdan tashqari ish bunday cheklashlardan xoli. O'quvchilarni yaqin atrofdagi korxonalarda uchraydigan kasblar bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishtirish maqsad qilib qo'yilishi mumkin. Ko'pchilik o'qituvchilar shunday qilishadi ham. Bu bilan ular o'quvchilarni yo'lga solib yuborishga muvaffaq bo'ladilar va kasb tanlashda ularga yordam beradilar. Bu ishda turli kasb egalari bilan uchrashuvlar uyushtirish, kasbga qiziquvchilar klublarini tashkil qilish va shu kibi tadbirlar yordam beradi.

Agar mehnat tarbiyasi faqat shiorlarga tayanib tashkil qilinsa, hech qanday samara bermaydi. Chaqiriqlar muayyan tishlar bilan hamoxang bo'lishi kerak. Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, sinfdan tashqari ish ayni shunday



ishlardan iboratdir. Ularga tarbiyalovchi tus berish lozim. Buning uchun sinfdan tashqari ishning maqsadlari shunday ifodalanishi kerakki, o'quvchilar uzoqni ko'ra olsinlar, ularning texnik tafakkuri rivojlanishi, buyum yasay bilishi o'quvchining faqat ularning uzigagina emas, balki jamiyatga ham foyda keltirishini, sinfdan tashqari ishda ishtirok etish, jamiyat taraqqiyotiga shaxsiy hissa qo'shish uchun yaxshi tayyorgarlik ekanligini tushunib yetsinlar

Mehnat tarbiyasi asosidagi sinfdan tashqari ish vazifalarini quyidagicha ifodalash imkonini beradi:

1) mehnat ta'limi davomida o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarini mustaxkamlash, umumlashtirish hamda kengaytirish;

2) umumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga o'quvchilarni jalb qilish;

3) hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari haqidagi tasavvurni kengaytirish;

4) kasb tanlashga tayyorlash;

5) mehnatga ongli munosabatni shakllantirish. Mehnat ta'limiga asoslangan sinfdan tashqari ish turli shakllarda amalga oshiriladi. To'garaklar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar uyushtirish va boshqa tadbirlar shular jumlasidandir.

Mehnat tarbiyasiga asoslangan sinfdan tashqari ishning hamma shakllarini shartli ravishda uch guruhga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruhga to'garaklar kiradi. To'garak sinfdan tashqari ishning sinalgan shakli bo'lib, maktablarda har xil predmetlari asosida keng qo'llaniladi. Ixtisosidan qat'iy nazar to'garaklar ishida umumiylik ko'pdir. Shuning uchun texnik to'garaklarning rahbarlari boshqa ixtisosdagi to'garaklar tajribalarini chuqur o'rganib, eng yaxshi tomonlarini o'z ishida qo'llashlari kerak. Albatta, to'garak ishini mehnat ta'limi asosida olib borish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning metod va shakllariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi gruppaga ekskursiyalar, vektorinalar, ko'rgazmalar, ishlab chiqarish novatorlari bilan bo'ladigan uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni kiritish mumkin.

Ularni sinfdan; tashqari ishning ommaviy shakllari deb atash qabul qilingan. Haqiqatdan ham, bu tadbirlar ko'plab o'quvchilarni jalb qiladi. Ularning mohiyatan afzalligi ham ana shunda.

Sinfdan tashqari ishlarning mehnat ta'limi asosidagi uchinchi guruhga o'quvchilarning mehnat birlashmalari kiradi. Mehnat birlashmalari nisbatan ancha ilgari paydo bo'lganiga qaramasdan, keyingi yillarda ayniqsa keng qo'llanila boshlandi. O'quvchilarning mehnat birlashmalari ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borishning samarali shakli sifatida mehnatda tarbiyalash, kasb tanlashga yo'llash, ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirish va mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Sinfdan tashqari ishning har qaysi turlariga to'xtalib o'tamiz.

#### Texnik to'garaklar ishini tashkil qilish

Maktablarning ish tajribasida turli-tuman to'garaklar uchraydi.

O'quv predmetlari bilan bog'liqlik nuqtai nazaridan to'garaklarni uch guruhga bo'lish mumkin; predmetga doir, predmetlararo va predmetdan tashqari to'garaklarga ajratish mumkin.

Predmetga doir to'garaklar deb, bevosita mehnat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan to'garaklarga aytiladi. O'z mazmuniga ko'ra bu to'garaklar mehnat darsida o'quvchilar bajargan ishning go'yo davomi, ammo bunda o'quvchilarning faoliyati yanada murakkabroq, kengroq bo'ladi. Predmetga doir to'garaklar aslo o'quvchilar avval bajargan ishni shunchaki takrorlamasligi kerak. Predmetlararo to'garaklar ichida eng ma'lumki fizik-texnik to'garaklar hisoblanadi. Bu to'garaklarda o'quvchilar faoliyatining mazmuni to'garakning o'z nomidan kelib chiqadi. Fizik-texnik to'garaklarda o'quvchilarning mehnat obyektlari, odatda, turli modellar bo'ladi. Bunda o'quvchilar fizika kursida o'rganiladigan muayyan qonuniyatlarni misollar bilan oydinlashtirishga muvaffaq bo'ladilar, bu esa fan asoslarini o'zlashtirishda yordam beradi. Bu - bir tomondan. Ikkinchi tomondan esa o'quvchilar model konstruksiyasi, Fizik- texnik to'garaklarga bir vaqtning o'zida fizika va mehnat o'qituvchilari rahbarlik qiladilar.

Predmetdan tashqari to'garaklar hozirgi vaqtda sinfdan tashqari ishda kengroq

tarqalgan. O'quvchilar faoliyatining mazmuniga ko'ra bu to'garaklar turli-tuman bo'lishi mumkin. Mazkur holda gap shunday predmetdan tashqari to'garaklar haqidagina boradiki, ularning ishlari uchun maktab ustaxonalaridan moddiy baza sifatida foydalaniladi, yoki o'quvchilar faoliyati mehnat darslarida olingan bilim va malakalarga tayanadi. Chunonchi, maktablardan birida o'qituvchi o'quvchilarga mehnat aniqligi va unumdorligini oshirish maqsadida muqovachilik ishlari uchun mo'ljallangan stanokchaning konstruksiyasini ishlab chiqarishni taklif etdi. O'quvchilarga bu g'oya ma'qul bo'ldi. Ular yana shunday stanokchaning bir nechta konstruksiyasini ishlab chikishda va eng yaxshilarini taklif etishdi. Amalda tekshirib ko'rish davomida bu konstruksiya tobora takomillashtirib borildi. Bularning hammasi muqovachilik ishlarini bajarish jarayonida sodir bo'ldi. Predmetdan tashqari to'garaklarga rahbarlik qilishga ko'pincha baza korxonada xodimlari, ota-onalar taklif etiladi.

O'qituvchi esa ularga metodik yordam ko'rsatadi. To'garaklar ishining mazmuni programmalarida belgilab beriladi. Bu programmalar xalq maorifi qoshidagi metodik kabinetlar, shuningdek, yosh texniklar, naturalistlar stansiyalari ishlab chiqadi. Programmalar bir va ikki o'quv yiliga mo'ljallangan bo'ladi. To'garaklar ishining mazmuni programmalarida belgilab beriladi. Bu programmalar xalq maorifi qoshidagi metodik kabinetlar, shuningdek, yosh texniklar, naturalistlar stansiyalari ishlab chiqadi. Programmalar bir va ikki o'quv yiliga mo'ljallangan bo'ladi.

Misol tariqasida V—VII sinf o'quvchilariga mo'ljallangan slesarlik ishidan predmetga doir texnika to'garagining programmalaridan birini keltiramiz. Tarkibida arra bilan qirqilib, tekis yuzalari egov bilan egovlangan detallari bo'lgan buyumlarni tayyorlash. Mehnat ta'limi darslarida olingan.

Bilimlarni umumlashtirish xamda malakalarni takomillashtirish: metallni arra bilan qirqishdagi asosiy ma'lumotlar; metallni arra bilan qirqayotganda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari: metallni arra bilan qirqish priyomlari; egovlash jarayonining mohiyati va bunda ishlatiladigan asbob, egovlayotganda rioya qilinadigan xavsizlik qoidalari, yagona yuzalarni egovlash.

To'garak mashqlari, odatda, har haftada bir marta ikki soatdan o'tkaziladi. Biroq o'quvchilar orasida bu bilan qanoatlanmaydigan jonbozlar ham uchraydi. Ular bilan ko'proq mashg'ulot o'tkazish mumkin, lekin buning uchun sinf rahbari bilan kelishish kerak, chunki u har bir o'quvchining boshqa predmetlarni qanday o'zlashtirishini yaxshi bo'ladi. Bir to'garakda 15 nafardan ortiq o'quvchi bo'lmasligi lozim, aks holda ularning har biriga individual tarzda rahbarlik qilish qiyinlashadi.

Ilg'or maktablarning ish tajribasi ko'rsatishicha, maktab ustaxonalariga asoslangan to'garak mashg'ulotining strukturasi kombinasional (aralash) dars strukturasi yaqin turadi. Bunga sabab shuki, har qanday to'garak mashg'ulotida, odatda, qator didaktik masalalar hal etiladi. Muayyan mehnat obyekti tayyorlashni o'quvchilar to'garak mashg'ulotidan ko'zlangan asosiy maqsad deb bilishadi.

To'garak mashg'ulotlarida o'qitish metodlari qo'yilgan didaktik maqsadlarga, o'quv materialining mazmuniga, o'quvchilar va o'qituvchining tayyorgarlik darajasiga qarab tanlanadi. To'garak mashg'ulotlariga qandaydir maxsus metodlar xos emas. Ularda mehnat ta'limining oddiy metodlari qo'llaniladi. Biroq bu metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Masalan, kuzatuvlarning ko'rsatishicha, og'zaki metodlardan ko'pincha tushuntirish metodi qo'llaniladi, hikoya metodi esa eng kam qo'llaniladi. Birinchi qarashda bu g'alatiroq, tuyulishi mumkin, ma'lumki suhbat jarayonida boshqa og'zaki metodlarga qaraganda o'quvchilarning bilish aktivligi ortadi. Biroq to'garak mashg'ulotlarida ta'lim metodlaridan foydalanishning o'ziga xosligi ham ana shunda. Ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar ayniqsa dastlabki

Mashg'ulotlarda suhbatlar bo'lishini yoqtirishmas ekan, chunki suhbatlar ularga odatdagi darslardagi savol-javobni eslatar ekan. Namoyish qilish metodlariga shu narsa ham xoski, V—VI sinf o'quvchilariga ko'pincha ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilinadi, VIII—IX sinf o'quvchilariga esa grafik tasvirlar namoyish qilinadi. Ishga bunday yondashishda o'quvchilarning grafik jihatdan tayyorgarligi hisobga olinadi. Instruktaj to'garak mashg'ulotlarida o'qitish metodlari ichida muhim o'rinni egallaydi. Bunda kirish, joriy va yakunlovchi

instruktajlar: frontal, zveno, va individual instruktajlar; og'zaki, yozma, grafik instruktajlar qo'llanilishi mumkin.

Boshqacha aytganda, to'garak mashg'ulotlarida mehnat ta'limi uchun xos bo'lgan instruktajning barcha turlari uchraydi. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar ishini tashkil qilishning har xil formalari (frontal, zveno, individual, mehnat taqsimoti bilan) qo'llaniladi.

O'quvchilar ishini tashkil qilishning qanday formasi tanlanishi to'garak mashg'ulotlarida alohida diqqatni jalb qiladigan mehnat obyektlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Bunga sabab shuki, sinfdan tashqari ish jarayonida bir vaqtning o'zida qo'yidagi ikki holni hisobga olishga to'g'ri keladi:

- 1) jamoa mehnati eng katta tarbiyalovchi imkoniyatlarga ega.
- 2) o'quvchilar o'z qiziqishlarini qanoatlantiradigan va o'z mustaqilligini eng to'liq ko'rsatishga imkon beradigan individual topshiriqlar bajarishga intilishadi.

#### Sinfdan tashqari ishning ommaviy formalari

Sinfdan tashqari ishning bu barcha formalari ko'plab o'quvchilarni jalb qilishga imkon beradi. Tajriba sinfdan tashqari ishning ommaviy formalari yuksak darajada samarali ekanligini tasdiqladi. Ular o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari to'g'risidagi tasavvurini kengaytirish, ularni turli kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi va hokazo. Lekin, afsuski ular o'quvchilarni foydali mehnatga, bevosita ijodiy faoliyatga jalb qila olmaydi. Shuning uchun o'quvchilar, masalan, tematik kechalarda, sinfdan tashqari ishning boshqa formalarida qatnashish bilan birga biror boshqa to'garak ishida ham qatnashsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ba'zi hollarda o'z-o'zidan shunday bo'lib ham qoladi. Chunonchi to'garak a'zolari tomonidan o'z ishlarini namoyish qiladigan ko'rgazmalar tashkil qilinadi.

Ko'rgazmaga ko'p maktablarda e'tibor bilan qaraladi. Ko'rgazmalar doimiy va vaqtincha bo'ladi. Lekin ko'rgazmalar doimiy bo'lgani maqulroq. Bunday ko'rgazmalarda o'quvchilar yasagan buyumlar yillar davomida yig'ib

boriladi. Ayrim maktablarda har bir o'quvchining o'zi haqida biror ustalik qoldirishi xatto an'anaga aylangan. Bunday ustalik faqat texnik mehnatgagina emas, balki qishloq xo'jaligiga va maishiy xizmatga oid bo'lishi ham mumkin. Ko'rgazma to'garak a'zolari uchun muhim stimuly, sinfdan tashqari ishda qatnashishga targ'ib qilishning samarali vositasi hisoblanadi.

Ko'pincha, yaxshi ko'rgazmalar butun maktabning iftixori bo'ladi. Ko'rgazma qoshida ekskursovodlar gruppasi tashkil qilinib, ular mehmonlarga xizmat ko'rsatadi, quyi sinf o'quvchilari bilan ish olib boradi. Ko'rgazmalarda to'garaklar ko'pi o'tqazilib, bunda har bir to'garak o'zining ish natijalarini jamoat hukmiga havola qiladi[11,12,15].

### **2.3. O'quvchilar mehnat ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligini o'zlashtirish darajasini aniqlash mezonlari.**

O'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quv faoliyatining mehnat ta'limida unumli mehnatini tashkil etishda pedagogik nazoratning zamonaviy samarador ko'rinishlaridan foydalanishga harakat qilinadi. Pedagogik nazoratning maqsadi - o'quvchilarning ta'lim olishiga va tarbiyalanishiga ilmiy, davlat, pedagogik-psixologik uslubiy talablarning tashkil etilish darajasini aniqlashning mazmunini yoritishdir. Pedagogik nazoratning maqsadidan uning vazifalaridan kelib chiqadi:

1. O'quvchilar xalq hunarmandchiligi, xalq xo'jaligining turli sohalarini boshqarish va tashkil etish texnika va texnologiya, ishlab chiqarish bo'yicha nazariy bilimlarga egalik darajasini aniqlash;

2. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha amaliy buyumularini bajara olish malakasi, qo'l mehnati asboblari, mexanizasiyalashtirilgan vositalardan foydalana olish malakasining rivojlanish darajasini aniqlash;

3. Kasbiy mahorat va maxsus ko'nikmalarning shakllanish darajasini aniqlash, turli xil texnika vositalarini boshqara olish va hunarmandchilikning turli sohaları bo'yicha kasblar (kosib, ganchkor, naqqosh, temirchi, tikuvchi, oshpaz va boshq.). ko'nikmalarni egallash darajasini aniqlash;

4. Turli xil texnikaviy-texnologik, tezkor, tarqatma va boshq. Materiallardan foydalanish, uslubiy, pedagogik, psixologik, ilmiy, ommabop, davriy, matbuot, radio, televideniye materiallaridan foydalana olish malakasining shakllanganlik darajasini aniqlash.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha pedagogik nazoratni tashkil etishning quyidagi tamoyillari mavjud: rejalilik, tizimiylik, ma'lum maqsadga yo'naltirilganlik, ko'p qirrali haqqoniylik, oshkoralik, hayotiylik va boshq. Ushbu tamoyillardan pedagogik nazorat o'quv tarbiyaviy jarayonning barcha sohalarini qamrab olishi ko'rinadi: maktabdagi o'quv-dars tizimi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tizimi, o'quvchilar unumli mehnat jarayonida qatnashishi, jamoat topshiriqlarini bajarishi, o'qituvchi va tarbiyachilarning, o'z-o'zini boshqarishning,

jamoatchilikning ta'siri, oilaning roli, o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, turli xil bilim, ko'nikmalarning shakllanish jarayoni, turli xil hujjatlarning yuritilishi va boshqalarni qamrab oladi. Pedagogik nazoratning maxsuldorligi, uni qanchalik obro', salohiyatli shaxslar holisona bajarishiga ham bog'liqdir. Nazoratni maktab direktori va u belgilagan kishilar: direktor o'rinbosarlari, o'qituvchilar, murabbiylar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, yoshlar uyushmalari, pedagogik-psixologik qobiliyatga ega ota-onalar, korxonalar rahbarlari, muxandis-o'qituvchilar, muxandis-mutaxassis xodimlar xalq hunarmandchiligi ustalari va boshqalar olib boradilar.

Pedagogik nazorat quyidagi ko'rinishlarda olib borish mumkin: 1. Yakka tartibda.

Kuzatish - xalq hunarmandchiligi bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini kasbiy va mehnat ko'nikma, malakalarining shakllanish jarayoni bilan kuzatuvchilarning bevosita yoki bilvosita tanishishidir. Kuzatuvchilar sifatida o'qituvchilar, tarbiyachilar, rahbarlar va murabbiylar hamda ilmiy tadqiqotchilar qatnashishi mumkin. Kuzatish bevosita, bilvosita, tizimli, uzluksiz va uzlukli, tabiiy va sun'iy, ilmiy tadqiqot maqsadlarida o'tkazilishi mumkin va o'quv-tarbiyaviy jarayoni bilan tanishishning asosiy uslublaridan bo'lib, olingan, olinayotgan bilim, shakllanayotgan, shakllangan ko'nikma va malakalarni hisobga olish o'quv dargohlaridagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni qayd qilib borishning asosiy shakli bo'lib xizmat qilmoqda.

1. O'quvchilarning nazariy bilim, ko'nikma va malakalarining o'zlashtirish darajasini tekshirish va bu jarayonni nazorat qilish xalq hunarmandchiligi bo'yicha turli xil mehnat va ishlab chiqarish masalalarini yechish, hisoblash, o'quv kursining biror qismi yoki butunlay o'rgatilishi ustida ish olib boriladi.

2. Bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishni nazorat qilish va tekshirish quyidagi ko'rinishlarda olib boriladi:

1. Og'zaki. 2. Yozma. 3. Amaliy.

Og'zaki tekshirish - o'quvchilar xalq hunarmandchiligining tarixi, rivojlanishi, mazmuni, hozirgi zamondagi ahvoli to'g'risidagi nazariy



bilimlarning darajasi, mustahkamligi, dunyoqarashining kengligi darajasini tasavvur etishga imkon beradi. Og'zaki tekshirish va nazoratning quyidagi ko'rinishlarini biz ilmiy tadqiqotimizda qo'lladik: so'rovlar, suhbat, intervyu.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va tekshirishning quyidagi yozma uslublari mavjud; testlar tuzish va o'tkazish, anketalar tuzish va o'tkazish, yozma nazorat ishlari, yozma ishlar, insholar, texnologik kartalar, chizmalar, jadvallar tuzish va boshqalar. Mehnat ta'limida va xalq hunarmandchiligida bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning amaliy uslublari yetakchi o'rin tutadi va hisoblanadi. Pedagogik nazoratning yetakchi hisoblangan amaliy, ishlab chiqarish uslublari quyidagilardir:

1. Mehnat yumush (operasiya)lari va uslublarini bajarishning to'g'riligi;
2. Ish o'rnini tashkil etish;
3. Xavfsizlik qoidalariga rioya etish;
4. Buyumlarni, buyurtmalarni yasashning sifatligi va ijodiylik;
5. Detallarga ishlov berish aniqligi;
6. Vaqt me'yoriga qo'yilgan talablar;
7. Sanitariya-gigiyena qoidalarining bajarilishi;
8. Mehnat qonunchiligi talab va miqdor (norma)larining saqlanishi.

Xalq hunarmandchiligida va uning turli sohalarida detallar (buyum qismlari)ga ishlov berishning aniqligiga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ushbu tadqiqotimizda, xalq hunarmandchiligida uchraydigan shakl va naqshlarning aniq geometrik o'lchamda emasligini turli xil egri-burchaklarga, ijodiy, milliy xarakterga ekanligini aniqladik.

Xalq hunarmandchiligida uchraydigan shakl va naqshlarning aniq burchak geometrik o'lchamga ega emasligi, ijodiy va milliy xarakterdaligi detallar o'lchamiga, tayyorlanish sifatiga, aniq davlat talablari, shablonlari va standarti qo'yilmasligini olib keladi. Buyumlar sifati va o'lchamlari aniqligiga asosiy o'lchov mezoni bo'lib, mohir, yuqori malakali xalq ustalarining tayyorlagan buyumlari, tutgan yo'llari, ish uslublari xizmat qiladi. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlar, to'garaklar rahbarlari, shu yo'nalishdagi mehnat faoliyatining amaliy va ishlab chiqarish, qo'l mehnati mazmunida ekanligini nazarda tutib ta'lim muassasasi uslubiy kengashi bilan

kelishilgan holda talablarni o'zlari belgilashlari lozim.

Hozirgi vaqtda amaliy ishlab chiqarish mashg'ulotlarini tashkil etishda xavfsizlik qoidalari va mehnat qonunchiligining shakllari qo'llanilmoqda:

1. Elektr va mexanizasiyalashtirilgan asbob-uskunalar bilan ishlash qoidalari - elektr xavfsizligi;
2. Mexanizasiyalashtirilgan mehnat vositalariga qarovlar o'tkazish, ta'mirlash va tuzatish - texnika xavfsizligi;
3. Ish o'rinlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, omborlarida, sex va uchastkalarida yong'in chiqish xavfining oldini olish choralari - yong'in xavfsizligi;
4. Oqar suv xavzalaridan, ichimlik suvdan va oddiy suvdan kesish asboblarini sovutkich sifatida foydalanish, suv o'tkazish kanallari va qurilmalaridan foydalanish - suv xavfsizligi qoidalari;
5. Tabiiy gazdan, siqilgan va suyultirilgan gazdan foydalanish, gaz yoqilg'ilarini ishlatish - gaz xavfsizligi;
6. Ish, dam olish, o'qish, ovqatlanish joylarini doimo toza, ozoda saqlash, zaruriy yorug'lik, toza havo, temperaturaning mehnat unumdorligiga erishishda to'g'ri tashkil etilishi-sanitariya-gigiyena qoidalari;
7. Mehnat va vaqtni to'g'ri taqsimlash yoki me'yorlash, ishchi va hunarmandlarni taqdirlash, sog'ligini saqlash, dam olishi, davolanishi va moddiy, ma'naviy ta'minlanishi, nafaqa bilan ta'minlash - mehnat qonunchiligi;
8. Bolalar va ayollar mehnati qonunchiligi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashda ushbu tizim qulayliklari quyidagicha bo'lib, qamrov ko'lamlarini keltirib o'tamiz:

1. Bilimlarni o'zlashtirish darajasini;
2. Malakalarning shakllanish darajasini;
3. Ko'nikmalarning takomillanish darajasini;
4. Mehnat jarayonining tashkil etish darajasini;
5. Mehnat yumushlarining bajarilish darajasi aniqligi;

6. Hunarmandning mehnat uslublari bajarilish darajasini;
7. Mehnat harakatlarining bajarilish sofligini;
8. Tayyorlangan buyumlar sifatini va boshq.

O'quvchi-hunarmandlarning mehnat faoliyatini yuqoridagi 8 xil ko'rinishida tekshirishga harakat qilinadi: 1.O'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish. Mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida turli faktlarni, sanalarni, ism, voqea va hodisalarni qayd qilish, avlodlarimiz tomonidan bajarilgan hayot tajribalarini o'rganish. Har bir hunarning tarixi, tarqalishi, ahamiyati, moxir ustalarini bilish, shu soha bo'yicha qilingan ishlar bilan tanishish, turli adabiyotlar bilan, radio, televideniye, o'qituvchining ma'ruza va hikoyalari, vaqtli matbuot va boshqalar ma'lum soha bo'yicha bilim manbalari hisoblanadi.2.Xalq hunarmandchiligi bo'yicha malakalarni shakllantirish o'quvchilarning mehnat harakatlarini uyushgan maqsadga yo'naltirilgan holda bajarishga qaratilgan mashq va uslublarning yig'indisi hunarmand faoliyatida aks etishidir.3. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha ko'nikmalar shakllanishi o'zlashtirilgan rivojlantirib maxsus, kasbiy harakatlar avtomatlashgan holda o'z-o'zidan bajarilish darajasigacha yetkazilishidir. Malaka sun'iy darajada shakllantirib, ko'nikma esa tabiiy- kasbiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi.1. Mehnat jarayoni - ishchi hunarmandning ma'lum yumushni bajarish maqsadida qilinadigan, ma'lum qonuniyatlar asosida mazkur kabga xos bo'lgan umumiy va maxsus izchil harakatlarning ta'sirlari yig'indisidir.

2.Mehnat usullari - ma'lum texnologik jarayonni amalga oshirish maqsadida ishchi-hunarmandning tugal harakatlari yig'indisidir.3. Ish harakatlari - ishchi-hunarmandning qo'l va oyoqlari (yoki ba'zi predmetlarining) ning mehnat jarayonida ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holdagi qimirlash, harakatlanishidir. Masalan, ba'zi o'quv kurslari, darslaridagi (tarix, geografiya, tillar va boshq.) o'zlashtirishdagi mehnat harakatlari bilan xalq hunarmandchiligi, mehnat ta'limi mashg'ulotlaridagi mehnat harakatlarining o'ziga xosligi albatta, ko'nikma va malakalarga boyligi bilan bir biridan farq qiladi.Albatta, yuqorida ko'rsatilgan 6 xil o'lchov mezoni (bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma, mehnat harakatlari va

boshq.)ning aynan, mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligiga xosligi bu sohalar bo'yicha pedagogik nazoratni o'rnatishda o'ziga xoslikni talab etadi. Pedagogik nazoratni tashkil etishda testlar uslubiyatidan foydalanish inson mehnat, kasbiy faoliyatining ko'pgina qirralarini tekshirishga kuzatish va baholashga yordam beradi[12,13].

Testlar uslubiyatidan foydalanish qo'yidagi talablarning bajarilishiga yordam beradi:

1. O'quvchilar o'zlashtirgan axborotlarni xajmi va mazmuniga nazorat uslublarining mos kelishi (mazmuniy moslik);
2. O'quvchilar bilimlarini o'zlashtirish darajasi bilan nazorat uslubining mos kelishi;
3. Topshiriqlarning oddiyliigi va soddaligi;
4. Topshiriqlarning ma'lum bir tomonga, maqsadga yo'naltirilganligi;
5. Testlarning ishonchliligi;
6. Testlarning tashxisliligi, oldindan ko'ra olishi;
7. Testlarni tekshirish mumkinligi, tekshiriluvchanligi;

1. Mazmuniy moslik - o'quvchilarning testlash o'tkazilgunga qadar o'zlashtirgan axborotlarining hajmi va mazmuniga, tekshirish uslub va vositalarining aniq mos kelishini ta'minlaydi. Masalan, xalq hunarmandchiligining ma'lum sohasi bo'yicha o'tkazilayotgan testlar shu sohadan o'rganilgan, o'zlashtirilgan qisminigina ham nazorat qilish ko'zda tutiladi. 2. Vazifali moslik - tekshirilayotgan faoliyat turining rivojlanganlik darajasi bilan bajarilayotgan topshiriqning, vazifaning talablari mos kelishi hunarmand-ishchilarning mehnat faoliyatini baholash muhim tomonlaridan hisoblanadi. Masalan, o'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha olgan nazariy bilimlari, amaliy ishlab chiqarish shakllanishi darajasi bilan testlar tuzilishining murakkablik darajasi bilan bir-biriga mos tushishi, nazoratning haqqoniyligiga olib keladi. 3. Topshiriqlarning soddaligi, oddiyliigi - birgina savol yoki topshiriq bilan o'quvchilar test o'tkazilgunga qadar o'zlashtirgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining darajasini aniqlanadi. 4. Testlar topshiriqlarining bir

tomonlilik yoki maqsadga yo'naltirilganligi barcha o'quvchilarga bir xilda tarqatilgan testlarni tushuna olishlari, testlar talabiga ko'ra yumushlarni bir xil darajada bajara olishlariga aytiladi. 5. Testlarning ishonchliligi qo'yidagi ikki xil sharoitda ta'minlanishi mumkin: 1. Nazorat qilinayotgan o'quv elementining ilmiy ishlanganlik darajasi (manbalarda qayd qilinish darajasi); 2. Axborotlarni turli manbalardan, darsliklardan, o'quv qo'llanmalari, tavsiyanomalar va boshq. O'zlashtirish darajasi. 6. Testlar tuzilishidagi oldindan ko'ra bilish, tashxislik ta'minlansa, test topshiriqlaridagi yoki etalonda ko'rsatilgan mehnat yumushlarini, mehnat ko'nikma va malakalarini yaxshi namunali bajarib kelgan o'quvchilar o'zlari mustaqil bajarishlariga, sinab ko'rishlariga imkoniyat yaratiladi. Masalan, test topshiriqlarida, yog'och o'ymakorligida, iskana turlari to'g'risidagi savollar berilsa, ma'lumotlarni aniqlabgina qolmasdan, ba'zi tur iskanalar bilan mehnat yumushlarining xususiyatlari, o'ziga xosligi (o'yish chuqurligi, kengligi, naqshlar rang-barangliligi va boshq.) ham suralishi, bajarilishi, sinab ko'rilishi mumkin.

Tuzilgan testlarni ilmiy jihatdan tahlil etish uchun shu soha bo'yicha mutaxassislar, fan o'qituvchilari mazkur ishlab chiqarish sohalari bo'yicha ilg'or mutaxassislar, mohir ustalar taklif etiladi. Tekshirilayotgan fanning o'quv dasturi bilan tuzilgan testlarni taqqoslash davrida o'quv axborotlarining manbalari, topshiriqlari, rejalari, yumushlarini bir-biri bilan hamda topshiriqlar mazmuni, shakli, etalonlari bilan ularni taqqoslash-mazmuniy va funksional moslikka to'g'ri kelishiga e'tibor qilmoq lozim bo'ladi. Testlarni shajaralarga ajratishda V. Bepalko tajribalaridan foydalangan holda, inson faoliyatining shakllanish darajasiga muvofiq o'zlashtirish darajasiga mos holda 4- bosqichga guruhladik: 1- bosqich. Ilgari egallangan bilimlarni esga tushirish, xotirlash darajalarini tekshirish testlari. Ushbu guruh testlari quyidagi qismlarga ajratiladi:

1. Bilish testlari;

1. Farqlash testlari; 3. Taqqoslash testlari; 4. Soxta testlar.

Bilish testlari - tuzish davrida topshiriqlarga javob variantlarida "xa", "yo'q", "bo'ladi", "taaluqli", "taaluqli emas" kabi to'g'ri va aks ma'noli so'zlar

qo'llaniladi. O'quvchilar to'g'ri javob-etalonlarni topishda bu javobdan birini tanlashlari lozim. Topshiriqlarda, tavsiflarda o'quvchilarga ilgari tanish bilish obyektlari, bilimlar majmui qo'llaniladi. Masalan, topshiriq; ganchkorlik xalq hunarmandchiligi sohasi hisoblanadimi? Javob: "xa", "yo'q"; etalon - "xa".

2. Farqlash testlari - tuzishda o'quvchilarga berilgan bir yoki bir necha topshiriqlarning ichida bir yoki bir necha to'g'ri javobni topish lozim bo'ladi.

3. Taqqoslash testlari - tuzishda ilgari o'rganilgan tanish bilimlar, obyektlar, jarayon va xodisalarning bir nechtasi keltirilib o'tilib, etalon to'g'ri javobni topishda yuqoridagi bilish obyektlari taqqoslanadi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

4. Soxta testlarni - tuzishda topshiriqlar mazmuni odatdagidek tuzilib, o'quv dasturining mazmuniga to'g'ri kelgani bilan javoblar yoki etalon bir necha ko'rinishda yoki raqamlar (kodlar) yordamida beriladi. O'quvchilar topshiriqlar yechimini, to'g'ri javobni topishda kodlar raqamini ko'rsatish lozim bo'ladi.

5. Axborotlarni ishlab chiqish yoki xotirlash testlarida o'quvchilar ilgari o'rgangan bilim va mavzularini xotirlaydilar yoki yangi axborotlarni o'zlari ishlab chiqadilar.

6. O'rniga qo'yish testlari - topshiriq tuzishda turli xil matn, jadval, formula, chizma, belgi, loyixa va modellarni tuzishdagi yetishmagan zaruriy qismlarning o'rniga qo'yish, topish zarur bo'ladi. Tuzish testlari - o'quvchilarda ma'lum jarayon, loyixa, chizmalarni o'zlari chizishlari lozim bo'ladi va javoblarni o'zlari topadilar.

7. Namunaviy masalalarni yechish testlarini - tuzishda o'quvchilardan ma'lum masalalarni yechish, jarayonlarini va tuzilmalarni loyixalash, mehnat yumushlarini bajarish ketma-ketligiga rioya qilish mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish qonuniyatlari, qoidalari izchilligiga rioya qilgan holda bajarishdan kelib chiqadi.

Axborotlarni o'zlashtirish, xotirlash testlari alohida mavzular, bo'limlar, o'quv kurslarini o'tilgandan keyin egallangan bilimlar saviyasini aniqlash uchun qo'llaniladi. U qo'yidagi bosqichlarda izchilikda tuziladi:

1. O'quv dasturining tekshirilayotgan qismiga diqqat bilan o'rganish, o'quv

elementlariga ajratish, o'quv fanining mavzular chiziqli tizimini yaratish;

2. Testlar tuzilayotgan o'quv elementlarini, tekshirilish obyektlarini tanlash;

3. Testlarni dastlabki ko'rinishida tayyorlab olish;

4. Testlarni tahlil, taxrir qilish va ekspertlar tekshiruvidan o'tkazish;

5. Sinov tekshiruvidan o'tkazish uchun testlarni zarur miqdorda, kam nusxada ko'paytirish ;



6. Testlarni sinov tekshiruvidan o'tkazish, dastlabki natijalarni tahlil qilish va topshiriq va etalonlarni yakuniy tekshiruvdan o'tkazish;

7. O'quvchilarni yalpi tekshiruvdan o'tkazish uchun zaruriy sonda, maqsadda tayyorlab olish, ko'p nusxada ko'paytirish. Testlarni tuzishda muhim bosqichlardan biri pedagogik nazorat obyektlarini tanlash hisoblanadi.

Har bir ajratilgan, tanlangan o'quv elementlari xususiyati inson faoliyatining rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak. Avtomatlashtirilgan, apparatlashtirilgan nazoratga ko'pgina testlar mos keladi. Tekshirilayotgan obyektlar ustidan o'tkazilgan apparatlashgan nazoratning obyektlari 3 tadan kam bo'lmasligi lozim. Mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligida bilim va malakalarni o'quvchilar o'zlashtirish faoliyati darajalarini har birini tahlil qilishga o'rganib ko'ramiz. O'zlashtirish darajasini aniqlash test topshiriqlarini ishlab chiqishda juda muhimdir. O'quvchilarni bilimni baholashda ta'lim sifatini oshirishda test shaklidan tashqari boshqa interfaol metodlardan ham foydalansak bo'ladi. Interfaol metodlarning afzalliklari shundaki o'quvchilarni bilim olishlariga hamda o'qiydigan fanlariga qiziqishlari ortishini ta'minlaydi. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchilarning ushbu metodlar haqida yaxshi bilim va tajribaga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda bir nechta metodlardan foydalanish uchun ularning jadvallarini ilova qildik.



Topshiriq  
Fikrlarni tarmoqlang



**Mavzu: Xalq hunarmandchiligi mavzusini zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi**

**Mavzu rejasi:**

1. Xalq hunarmandchiligi tarixi
2. Xalq hunarmandchiligi haqida umumiy ma'lumotlar
3. Xalq hunarmandchiligi turlari

Talabalar faoliyatini baholash mezonlari:			
%	Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	5	“a'lo”	Xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish; Mustaqil fikr, mushohada yurita olish; Amalda qo'llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish
71-85	4	“yaxshi”	Mustaqil mushohada yurita olish; Amalda qo'llay olish; Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish
55-70	3	“qoniqarli”	Mohiyatini tushunish; Bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
0-54	2	“qoniqarsiz”	Aniq tasavvurga ega emaslik; Bilmaslik

### **Mavzuga tatbiq etiladigan interfaol metodlar ishlanmasi**

“Mehnat ta’limi darslarida xalq hunarmandchiligini o’rgatish” mavzusini o’qitishda ta’lim jarayonini samaradorlik darajasini ko’tarishga xizmat qiluvchi chizmalı metodlar (grafik organayzerlar) dan Rezyume metodi hamda Tushunchalar tahlili metodlari tatbiq etildi. Quyida ushbu metodning o’quv jarayoniga tatbiq etilishi yoritilgan.

**Rezyume metodi** - murakkab, ko’p tarmoqli mumkin qadar muammoli mavzularni o’rganishga qaratilgan bo’lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan: ijobiy va salbiy tomonlari afzallik va kamchiliklar, foyda va zararlar belgilanadi.

Ushbu metodning asosiy maqsadi: talaba (o’quvchi) larning erkin, mustaqil, taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o’quv muammosini yechimini topishga ham kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoa o’z fikrini bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o’tilgan mavzulardan egallangan bilimlarni qo’llay olish, o’rgatishdir.

Texnik qo’llanilishi: Ma’ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo’lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarni yakka yoki kichik guruhlar ajratilgan tartib o’tkazish, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo’llash mumkin. Mashg’ulot foydalaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatdagi qog’ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar flamaster yoki rangli qalamlar kerak bo’ladi.

#### **“Rezyume” interfaol metodini amalga oshirish texnologiyasi:**

- O’qituvchi talaba (o’quvchi) larning soniga qarab 3 -4 kishidan iborat kichik guruh ajratiladi;
- O’qituvchi talaba (o’quvchi) ularning mashg’ulotning maqsadi va o’tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har biri kichik guruh qog’ozning yuqori qismiga yozuv bo’lgan ya’ni asosiy muammo, unda ajratilgan o’quv muammolari va ularni yechish yo’llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi;

- Har bir guruh a`zolari topshiriq bo`yicha ularning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o`z fikrlarini flomaster yordamida yozma tarzda bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoning yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;
- Kichik guruh a`zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdim etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o`qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- O`qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so`rab, ular fikrini aniqlaydi va o`z xulosalari bilan tanishtiradi;
- O`qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlar yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so`nggi mashg`ulotni yakunlaydi.

### Kichik guruhlarini shakllantirish

Mashg`ulotning maqsadi va o`tkazilish tartibi bilan tanishtirish, tarqatma materiallarni tarqatish va topshiriq berish

Topshiriq bo`yicha ularning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, guruh fikrlarini yozma tarzda A-3 formatga bayon etadilar.

Taqdimotda guruhning yozma bayon etgan fikrlari o`qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi

O`qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so`rashi, ular fikrini aniqlash va o`z xulosalari bilan tanishtirish

Xulosa chiqarish va baholash

**“Rezyume” metodiining sxemasi**

5-ilova

<b>Xalq hunarmandchiligini jamiyatimizda tutgan o’rni</b>							
<b>Xalq hunarmandchiligini o’rganish</b>		<b>Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan ish qurollari</b>		<b>Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan materiallar</b>		<b>Xalq hunarmandchiligi rivojlanishini o’rni</b>	
<b>afzalligi</b>	<b>kamchiligi</b>	<b>afzalligi</b>	<b>kamchiligi</b>	<b>afzalligi</b>	<b>kamchiligi</b>	<b>afzalligi</b>	<b>kamchiligi</b>
<b>Xulosa</b>							

**Tushunchalar tahlili**-o`quv predmeti bo`yicha talabalar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo`yicha o`qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o`z izohlarini berish, shu orqali o`z bilimlarini tekshirib baholashga imkon yaratish va o`qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talabalarni baholashga yo`naltirilgan metoddir.

<b>№</b>	<b>Tushunchalar</b>	<b>Mazmuni</b>
1	Xalq hunarmandchiligi tarixi	
2	Xalq hunarmandchiligi turlari	
3	Xalq hunarmandchiligi qurollari	
4	Xalq hunarmandchiligi materiallari	
5	Xalq hunarmandchiligini kelajagi	
6	Xalq hunarmandchiligini xorijiy davlatlardagi o`rni	

6-ilova

<b>Mavzu bo'yicha umumiy xulosalar</b>
<p><b>Xalq hunarmandchiligini o'rganish, ulardan foydalanish bo'yicha</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xalq hunarmandchiligini tutgan o`rni</li> <li>2. O`quvchilarga milliy- madaniy qadriyatlarimizni o`rgatish</li> <li>3. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida rivojlantirish</li> <li>4. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish</li> </ol>

<b>Guruhlarda ishlashni baholash</b>					
Guruhlar	Javobning to'liqligi	Sxemalarda berilganligi	Guruh ishtirokchisining Faolligi	Ballar	Bahosi
1					
2					
3					

**Mavzu bo'yicha test savollari**

**Test.**

**1. Nechanchi asrga kelib Buxoro, Shahrisabz, Farg'ona kabi katta-katta badiiy kashtado'zlik zardo'zlik markazlari bunyod etilgan?**

- A) XIX
- B) XIV
- C) XVII
- D) XVI

**2. Kashtachilik san'ati kimlarga xos bo'lgan?**

- A) erkaklarga
- B) erkak va ayollarga
- C) bolalarga
- D) ayollarga

**3. Zardo'zlik san'ati vatani qayer?**

- A) Sharq mamlakatlari
- B) Sharq va G'arb mamlakatlari
- C) Yevropa mamlakatlari
- D) G'arb mamlakatlari

**4. Zardo'zlikda birinchi qanday iplardan foydalanilgan?**

- A) zar va kumush iplar
- B) turli xildagi iplar
- C) simlar



D) turli rangdagi iplar

**5. Zardo'zlik nechanchi asr boshlarida Buxoroda vujudga kelgan?**

- A) XIX-XX
- B) XVI-XIV
- C) X
- D) IX-X

**6. Bizgacha yetib kelgan zardo'zlik materiallarining ko'pchiligi qanday matodan tikilgan?**

- A) chit
- B) barhud
- C) shoyi
- D) atlas

**7. Sidirg'a va gulli atlasdan asosan nimalar tikilgan?**

- A) ro'mol va belbog'
- B) erkaklar choponi
- C) bolalar choponi
- D) ayollar ro'moli

**8. Zardo'zlikda necha xil angishvonada foydalaniladi?**

- A) 1 xil
- B) 2 xil
- C) 4 xil
- D) 3 xil

**9. Toshkent do'ppilarining nechta turi mavjud?**

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 1 ta
- D) 2 ta

**10. Naqsh chizishda asosan nechta shakldan foydalaniladi?**

- A) 2 ta
- B) 1 ta
- C) 4 ta
- D) 3 ta

## XULOSA

Xalq hunarmandchiligi insonning nisbatan qulayroq va chiroyliroq yashashini ta'minlovchi asosiy faoliyat turlaridan hisoblanib, ongli odam paydo bo'lishi bilan dunyoga keldi va rivojlandi.

Respublikamizda yashaydigan 120 dan ziyod millat va elatlar vakillarining uzoq mehnati o'tmishini, sharqona tafakkurini, madaniyatini ifodalovchi vosita hisoblangan xalq hunarmandchiligini tizimli, mukamallashgan, tartibli, doimiy fan sifatida o'rganish davri yetib keldi. Respublikaning mustaqillikka erishishi, davlat sifatida shakllanish tariximizni, ma'naviyatimizni va milliy merosimiz hisoblangan hunarmandchiligimizni, o'zimiz uchun va boshqalar uchun, o'zimiz o'rganishimizga, talqin qilishimizga imkoniyatlar yaratdi.

Xalq hunarmandchiligining hozirda saqlanib qolgan 150 dan ziyod sohasi bevosita o'rganish va yoshlarga o'rgatish obyekti hisoblansa-da, yo'qolib ketgan, hozirgi davrda nomlari adabiy manbalardagina saqlanib qolgan yana 100 dan ziyod turi esa turli tadqiqotlar, izlanishlar manbai bo'lishi mumkin. Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda xalq hunarmandchiligining mazmuni, tarixi, tuzilishi, xususiyatlari, bajarilish texnologiyasini aniq bir umumta'lim o'quv fani predmeti hisoblangan mehnat ta'limi fanidan o'tkaziladigan to'garaklarda qo'llanilishining asoslarini ishlab chiqishga qaratdik.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni xalq hunarmandchiligi kasbga yo'naltirish va o'rgatishda quyidagi holatlarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi:

1. Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlarining yangi tizimi loyixasida xalq hunarmandchiligi nazariy, ma'naviy, metodologik, tarixiy poydevor sifatida tanlab olindi.

2. Ushbu ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishning didaktik asoslarini yaratishda: a) Ta'lim mazmunini tanlab olish (nimani o'rgatish); b) Shakl va uslublarini, vositalarini aniqlash-o'qituvchi vazifasini belgilash (qanday qilib o'rgatish?); v) O'rganilgan va o'rgatilgan ta'lim mazmunining o'zlashtirish darajasini aniqlash (qanday darajada o'rgatildi?) kabi

asosiy tamoyillarga diqqat e'tibor qaratildi.

3.Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish ishlari va xalq hunarmandchiligini amalga oshirishda yetakchilik vazifasini bajaradigan o'qituvchi-murabbiy-ustozlarni amaliy, kasbiy, pedagogik faoliyatga tayyorlashning yaxlit texnologiyasi namunasi yaratildi va uning ba'zi qismlari amalda sinab ko'rildi.

4.Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish darajasini, mezonlari belgilandi va bu sohada testlar uslubiyati samarali qo'llaniladi, natijalar beradi.

5.Ushbu ta'lim sohasi, boshqa fanlardan farqli ravishda, alohida o'quv, moddiy, xom ashyo ta'minotini talab etadi, ushbu ta'minotni maxalliy sharoitlarda ijobiy amalga oshirish uchun mehnat va ishlab chiqarish amaliyotlari dasturi va metodikalari ishlab chiqilsa ijobiy natijalar beradi.

6.Mehnat ta'limi va hunarmandchilik sohalarini umum ta'lim maktablarida muntazam o'rgatib borish, o'quvchilarga faqatgina ma'naviy, ma'rifiy, odob-axloq, aqliy, jismoniy, ekologik,estetik, ruxiy jihatdangina shakllanishiga yordam beribgina qolmasdan, balki ularning moddiy sharoitlarini, ta'lim muassasasining, oilaning o'z- o'zini iqtisodiy ta'minlashlarini shakl yaxshilanishiga ham yordam beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz". – Toshkent.: "O'zbekiston", 2017. -486 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini ya'nada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni. – Toshkent.: "ADOLAT", 2017. -111 b.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. -T.: O'zbekiston, 1995.  
- 23 b.
4. Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirish davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. T: «Toshk. Oqshomi» gaz. 1997. 2-apr. № 38.
5. Achilov M.O., Ochilova N. O'qituvchi odobi. -T.: O'qituvchi, 1997. - 136 b.
6. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. -T.: Mehnat, 1991-. -384 b.
7. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o'rgatishning milliy - an'anaviy asoslari. (Metodik tavsiya). -T.: RUMM, 1993. - 20 b.
8. Davlatov K.D., Vorobyev A.I., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi hamda metodikasi.  
- T.: O'qituvchi, 1992. - 319 b.
9. Yuldoshev K.G. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadasi hunar va mehnat maktabi. -T.: O'qituvchi, 1979.
10. Mazur V.A., Davidova L.G. Milliy hunarmandchilikka o'qitish jarayoni mazmuni va uni tashkil qilish. (metod.tavsiya). -T.: UzPFITI, 1994. - 24 b.
11. Maxkamov S. O'quv ustaxonalarda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar. -T.: O'qituvchi, 1991. - 60 b.
12. Maxkamov U. Axloq va odob saboqlari. -T.: Fan., 1994. - 136.
13. Mirzaaxmedov M.X. Materiallarga badiiy ishlov berish. T.: O'qituvchi, 1976. - 24 b.
14. Mirzaaxmedov M.X., Ergashev S. Yog'och o'ymakorligi. -T.: O'qituvchi, 1995. - 64 b.
15. Muranov B.I. Ishlabch chiqarish praktikasi sharoitida qishloq o'quvchilarining umumli mehnatini tashkil etish. Samarqand. SamSXI. 1989. -77 b.

Elektron ta'lim resurslari

- 1.[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
- 2.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 3.[www.edu.uz](http://www.edu.uz)